


SM 11
Ertaklar, rivoyatlar,
hikoyatlar, maqollar, hikmatlar



SHARQONA TARBIYA

1-kitob




85
SH-11

SHARQONA TARBIYA

Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar,
hikoyalar, maqollar, hikmatlar

1-kitob

INVENTAR №	1120/2
Zarurotma Ax.sse	
Toshkent	
«Navro'z» nashriyoti	
2018-yil	



UO'K: 122.12.24

KBK: 85(5O'zb)

N34 Nuriddinova, Mavjuda / "Sharqona tarbiya".

Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, maqollar, hikmatlar. / – Toshkent: "Navro'z", 2018-y. – 144 bet.

E'tiboringizga havola etilayotgan ushbu to'plamning alohida xususiyati shuki, unda inson fe'lida mujassam bo'lgan ba'zi bir fazilat yoki illatlarga to'xtalib, uni ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, xalq maqollari misolida izohlaydi, ayni mavzudagi ulamolarning o'gitlari, donolarning hikmatlari keltiriladi. Yana, shuni ham alohida ta'kidlash o'rinniki, mazkur to'plam oila davrasida mutolaa qilish uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi:
Mavjuda NURIDDINOVA

ISBN 978-9943-38-1-957

© «Navro'z» nashriyoti, 2018
© Mavjuda Nuriddinova

SO‘ZBOSHI

Bir donishmanddan so‘radilar:

– *Odam uchun yarashadigan liboslar ichida eng go‘zali qaysi?*

Donishmand aytdi:

– *Bu axloq libosidirki, kishi qiyofasini bezaydigan, uning husniga husn qo‘sadigan bundan ortiq go‘zal libosni uchratmadim.*

Darhaqiqat, insonning qalbidagi ijobiy va salbiy xislatlarning bari uning bajarayotgan xatti-harakatlari, aytayotgan gap-so‘zlari orqali yuzaga chiqadi. Shu boismi “Beadabning yomonligi faqat o‘zigagina emas, boshqalarga ham zarar yetkazadi”, deydi Sharqning yetuk allomalaridan biri Jaloliddin Rumiy.

O‘tmishda yashagan taniqli mutafakkirlar, olim-u fuzalolar insonlarning yuksak ma’naviyatli, pok axloqli, go‘zal xulqli komil insonlar bo‘lib yetishishlari ni orzulab, bu borada ko‘p mehnatlar va mashaqqatlar chekib, hisobsiz asarlar bitganlar. E’tiboringiza havola etilayotgan ushbu to‘plamning alohida xususiyati shuki, unda inson fe'lida mujassam bo‘lgan

ba'zi bir fazilat yoki illatlarga to'xtalib, uni ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, ruboiyalar, nazmiy parchalar, xalq maqollari misolida izohlaydi, ayni mavzudagi ulamolarning o'gitlari, donolarning hikmatlari keltiriladi. Yana, shuni ham alohida ta'kidlash o'rinniki, mazkur to'plam oila davrasida mutolaa qilish uchun mo'ljallangan. Ya'ni, kichik yoshdagagi bolalar fahm-u fasohatiga og'ir keladigan fikrlarni ota-onalari yoki ustozlari bilan hamjihatlikda o'zlashtirsa, hikmatli iboralar va maqollarni yod olib, hayotida qo'llasa, ko'zlangan natijaga imkon qadar aniqroq hamda ildamroq erishiladi.



ILMGA INTILISH

Ilmsizlik va g‘aflat baxtsizlik ildiz otadigan o‘rin, ilm va ma‘rifat esa baxt-saodat sababchisidir. Ko‘z tevarak-atrofni ko‘rish uchun quyosh nuriga qanchalik ehtiyojli bo‘lsa, aql ham ilm hosil qilishga shunchalik muhtoj. Bu haqda Ibn Rajab Hanbaliy shunday deydi: “Rivoyat-u so‘zlarga boylik ilm emas, ilm qalbda o‘rnashgan nурdir. Inson u bilan haqni botildan ajratadi.”

TOSH QATTIQMI YOKI BOSH? (*hikoyat*)

Darsxonada tahsil oladigan bir yigit har qancha o‘qib-o‘rganmasin, uquvsizligi sababli doim ustozlaridan dakki eshitar, eng yomoni, uning ilm olishga bo‘lgan g‘ayratu intilishi sust ekan. Shu sabab u o‘zlashtirish borasida do‘stilaridan ancha ortda qolib ketibdi. Bundan mulzam bo‘lgan tolibi ilm kunlarning birida shunday qarorga kelibdi:

– Zehnim juda past. Uquvsizman. Bu ahvolda o‘qiy olmayman. Yaxshisi, qishlog‘imga qaytib dehqonchilik qilay.

Shu maqsadda u tongda yo‘lga tushibdi. Yo‘l yurib juda toliqibди. Kunning issig‘i holdan toydiribdi. Dam olish maqsadida soya izlayotib yo‘l chetidagi g‘orni ko‘rib qolibdi. G‘orning ichkarisi salqinligi bois, unga kirib hordiq chiqarishga ahd qilibdi. G‘orga kirib atrofni kuzatar ekan, yuqoridaн tomayotgan tomchini ko‘rib qolibdi. Tomchi yerdagi toshning ustiga tushardi. Tomchi tosh ustiga tomaverib, unda kaft-dekkina chuqurcha hosil qilgandi.

Ko‘z o‘ngidagi manzaradan ta‘sirlangan yigitning miyasida birdan chaqmoq chaqqandek bo‘ldi. Mittigina tomchi toma-toma toshni o‘yibdi!.. U ham astoydil ilm o‘rgansa, albatta, uquvi ortishi, ustozlarini tinglayversa, alal-oqibat bilimga ega bo‘lishi mumkin-ku!

– Mening boshim shu toshdan ham qattiq emasdir,
– deya shahd o‘rnidan turdi u.

Ortiga qaytib, ilm olishni davom ettirdi. Astoydil intilgani uchun bilim borasida do‘stlariga yetib, ular dan ham o‘zib ketdi. Hattoki eng yaxshi tolibi ilmlar qatoridan joy oldi. Yuqoridaн hodisadan xabar topganlar uni “Ibn Hojar”, ya’ni “Tosh o‘g‘li” deb atay boshladilar.



O'QISHNING FOYDASI (*hikoya*)

Kechalarning birida Abror chiroqqa yaqinroq o'tirib darsini tayyorlay boshladi. Uning o'qishga ishtiyoqi yo'q edi, jazolanmaslik uchun dars tayyorlardi, xolos. U biroz dars qilgach kitobni yopdi va onasidan so'radi:

– Ilm olish inson uchun nega kerak? Kitob o'qishning nima foydasi bor?

– O'g'lim, o'qishing kerak!.. O'qishning foydasi ni-hoyatda ko'p, biroq sen hozir uning qay darajada muhimligini tushunmasliging mumkin, – dedi uning onasi.

– Onajon, barcha aytganlaringizni bajara-man, ishlariningizga yordamlashaman... ertaga maktabga bor-may?

– Hozir men senga bir hikoya so'zlab beraman. Diqqat bilan tingla-da, o'qishni bilmaydigan bolaning boshiga qanday ko'ngilsizliklar tushishi mumkinligini tasavvur qil!..

Uzoq bir manzilni ko'zlab yo'lga chiqqan bola an-horning ustiga o'rnatilgan taxta ko'prikka yetdi. Ko'prikning yonida bir taxta osilib, unga: "Bu ko'prikdan o'tma, undan o'tish xavfli!" deb yozilgandi. Bola

yozilgan jumlanı o‘qidi-da, ko‘priordan o‘tmadi. Biroz naridagi boshqa bir ko‘priordan o‘tib, manziliga sog‘-omon yetib oldi.

Keyin u yerga o‘qishni bilmaydigan boshqa bir bola keldi. U yozuvli taxtaga bir nazar tashladi-da, ko‘priordan o‘tdi. Bola ko‘prikning o‘rtasiga yetganda oyog‘ining tagidagi yog‘och ko‘prik qarsillab sindi, u anhorga tushib, suvga g‘arq bo‘ldi.

Onasini diqqat bilan tinglayotgan Abror hikoya so‘ngida bir seskanib tushdi, yonidagi kitobini och-di-da, darsini davom ettirdi.

Mavzuga oid maqollar:

Bilishim,

Bilishimga tushar bir ishim.

Ilmi yo‘qning ko‘zi yumuq.

Zehn qo‘ysang bilimga,

Ilm tomar dilingga.

SALOMLASHISH

“Ochlarga taom bermoqlik, tanigan va tanimagan-ga salom bermoqlik eng yaxshi xislatlardandir”, deya e’tirof etiladi hadisi shariflarda.

“Assalomu alaykum!” – o’zaro muomala-munosa-batlarning boshidir. Uni nechog’lik samimiylar, munosabatga shunchalik iliqlik, samimiylar, ochiqko’ngillik o’rnashadi. Salom-alikni osh-kora aytishning yana bir sehrli kuchi bor. U kishilar o’rtasida muhabbat paydo etib, o’rtadagi gina va kuduratlarni ketkazadi.

“ASSALOMU ALAYKUM”NING QUDRATI (rivoyat)

Yerda endigina hayot paydo bo’lgan qadim zamonda odamlar o’z bilganlaricha kun kechirishar, hatto bir-birlari bilan tuzukroq gaplashishni, muomala qilishni bilmay qiynalishar ekanlar.

Yillar o'tishi bilan ular orasida "ona", "ota", "non", "suv" degan iboralar paydo bo'libdi. Keyinchalik bu so'zlar yoniga "assalomu alaykum" so'zi ham qo'shibди.

Odamlar bir-birlarini ko'rganlarida «Assalomu alaykum», deb hol so'rashganda, chehralariga nur yugurib, dillari yorishadigan bo'libdi. Katta-kichik – hamma bu so'zni o'rganib olibdi. Odamlar orasida "Assalomu alaykum" so'zi eng sevimli, yoqimli, hayot-baxsh so'zlardan biriga aylanibdi.

Kunlarning birida aholi yashaydigan qishloq ya-qinidagi o'rmonda bahaybat bir dev paydo bo'libdi. Undan odamlar jabr ko'rib, qo'rquvga tushibdi. Dev bilan jang qilgani borgan pahlavonlar nom-nishonsiz yo'qola boshlabdi.

...Ayni bahor chog'ida bir bolakay qo'ziqorin terib yurib, o'rmonning ichkarisiga kirib boribdi. Bunday qarasa, naq ro'parasida savlat to'kib, ko'zlar charaqlab dev turganmish!..

– Assalomu alaykum, ey dev, – debdi bola.

Devning a'zoyi badani bo'shashib, ko'zlariga miltirab yosh kelibdi:

– Ey odam bolasi, – debdi dev. – Shu so'zingni yana bir bor qaytar. Sendan ilgari kelganlarning hech biri menga yaxshi tilak bildirishmagandi, shu bois ochiq chehrang va xayrli so'zing ko'nglimga xush yoqdi,

dilimga yaxshilik urug‘ini sepdi. Butunlay qotib qolgan diydamni yumshatib, hayotga muhabbat uyg‘otdi. Umrinda bunday ulug‘vor so‘zni eshitmagandim. Sen menga yaxshilik istading, men ham senga yaxshilik qilmoqchiman. Tila tilagingni, ey odamzotning asil farzandi!

– Ey “assalom”ning qadriga yetgan dev, – debdi bola, – ko‘ryapsanki, qorong‘i tushib qoldi, agar malol kelmasa, qishlog‘imga olib borib qo‘y, bo‘lmasa qo‘rquam.

Bir vaqt odamlar qarashsa, osmonda ko‘zlari har tomonga o‘tkir shu’la sochib, bahaybat dev uchib kelayotganmish. Hamma dahshatga tushibdi. Falokatdan qutulishning ilojini topolmay, hang-mang bo‘lib, qotib qolishibdi. Birozdan keyin devning ustidan savatchada qo‘ziqorin ko‘targan bola tushib kelayotganmish! Odamlar ko‘zlariga ishonmabdlar.

– Yana nima xizmating bor, buyur, odamzotning asil bolasi, – debdi dev bolaga.

Bola fursatni g‘animat bilib, devni aholiga zulm qilmaslikka chorlabdi. Dev rozi bo‘lib, bola bilan quvnoq xayrlashibdi. Qishloq ahli boladan o‘rmonda sodir bo‘lgan voqeа tafsilotini so‘rab, bilib olishibdi. Ashaddiy dushmanni ham do‘stga aylantira olgan “Assalomu alaykum”ning qudratiga hamma qo-

yil qolibdi. Shundan boshlab salomlashish odamlar o‘rtasida qo’llanilishi ham qarz, ham farzga aylanibdi.

Mavzuga oid magollar:

*So‘z – kishining o‘zagi,
Odob – kishining bezagi.*

*Kattaning hurmati – qarz,
Kichikka salom – farz.*

*Kattaga salom ber,
Kichikka kalom.*

KEKSALARНИ Е'ЗОЗЛАШ

Yoshi ulug' insonlarga mehr-e'tibor ko'rsatish xal-qimizga xos azaliy fazilat. Keksalarning o'gitlariga amal qilib yashash komillik, turmushimizdagi farovonlik va tinchlik-osoyishtaligimizga sababchi bo'ladidi. Shunday ekan, keksalarni ko'rganda qo'limizni ko'ksimizga qo'yib, xizmatlariga tayyor turaylik. Nasihatlariga labbay deya ergashib, tanbehtariga qulqutaylik-da, uyimizning, ko'nglimizning to'rini ularga ataylik!..

QARI BILGANNI PARI BILMAS

(Yapon xalq ertagi)

Qadim zamonda Sinanoda viloyatini kuch-quvvatga to'lgan bir podshoh boshqarar ekan. Uning chol-u kampirlarni ko'rgani ko'zi yo'q ekan. Ular kaltafahm insonlar, xonlikka hech bir nafi tegmaydi, deb hisoblar ekan podshoh. Yetmish yoshdan oshgan

kishilarni bitta ham qoldirmay, hammasini maxsus bir orolga surgun qilib yuborar, u yerda kun kechirish juda ham og‘ir bo‘lganidan qariyalar yeyishga ovqat topolmay, tezda halok bo‘lar ekanlar.

O‘sha viloyatda bir dehqon bo‘lib, uning kampir onasi bor ekan. Kampir yetmishga chiqishi bilanoq dehqon tashvishga tushib qolibdi. “Onam yetmishga to‘ldi, podshohning amaldorlari bugun-erta uni olib ketgani kelib qolishadi. Onam uzoq surgunga bardosh bera olarmikin? Qo‘lidagi narsani tushirib yuboradi-yu, u yerga borib dalada ishlay olarmidi”, degan xayollar uning miyasini chulg‘ab olibdi. U o‘ylab-o‘ylab, axiri, bag‘ritosh amaldorlar kelib, onasini no ma’lum tomonga olib ketishlarini kutib o‘tirmay, yaxshisi, o‘zim uni biror joyga olib borib qo‘yib kelganim ma’qul, deb o‘ylabdi.

Qorong‘i tushibdi. Sakkizinch oyning o‘n beshinchi kuni ekan. To‘lin oy dala va o‘rmonlarni nuriga to‘ldiribdi. Dehqon onasiga o‘z maqsadini sezdirmaslikka urinib debdi:

– Onajon, qarang, oy bugun haddan ziyyod chiroyli-ya! Shunday emasmi? Ketdik, toqqa chiqib, oydin kechada bir sayr qilib kelamiz!..

U onasini opichib yo‘lga tushibdi. Gadoy topmas yo‘llardan yurib, bir yalanglikka chiqibdi. Undan o‘tib, o‘rmonzorga kiribdi. Shunda kampir so‘qmoq-

ning har ikki tomonidagi daraxt novdalarini sindirib yerga tashlab ketaveribdi. Dehqon hayron bo'lib:

– Onajon, nega bunday qilyapsiz? – deb so'rabdi.

Kampir indamay kulib qo'ya qolibdi.

Dehqon o'rmon ichkarisiga kirib ketaveribdi. U o'rmondan chiqib, vodiyya tushibdi. Undan tog' cho'q-qisiga ko'tarilibdi. U yerda hamma yoq suv quygandek jimjit ekan. Bu cho'qqi ustidan hatto qushlar ham uchib o'tmas ekan. Sutdek oydin kechada hamma yoq xuddi kunduz kundek yop-yorug' ekan. Hatto qalin o'tlar orasida sekin-sekin chirillayotgan qora chigirtkalarni ham ko'rish mumkin ekan.

Dehqon onasini ko'm-ko'k o'tlar ustiga o'tqazib-di-da, unga qarab, ko'zlaridan duv-duv yosh oqizaveribdi.

– Senga nima bo'ldi? – deb so'rabdi onasi.

O'g'li onanining yoniga o'tirib, unga bor gapni aytibdi:

– Gap mundog', onajon! Oydin kechada sayr qilib kelamiz, deb sizni aldagandim. Aslida, sizni bu xilvurga olib kelishimning boshqa bir sababi bor. Siz allaqachon yetmishga to'lib, yetmish birga qadam qo'ydingiz. Sizni uzoqdagi orolga surgun qilib yuborishlardan qo'rqaman. Sizni shafqatsiz amaldorlarning qo'liga tushib qolmang, deb shu yerga olib keldim. Men dan xafa bo'lmaning, onajon!

Kampir bu gapni eshitib sira ajablanmabdi.

– Men buni allaqachon fahmlab, taqdirga tan berib bo'lganman. Sen endi uyga qaytib, bemalol ishingni qilaver. Tezroq jo'na, yana yo'lida adashib qolmagin. Men yo'l-yo'lakay tashlab kelgan shoxchalarga qarab manzilni belgila, – debdi u.


Dehqon uyiga qaytib, eshik oldida o'tiribdi-da tog' cho'qqilarini yoritib turgan oyga qarabdi. U o'z qilmishiga chiday olmabdi. "Onam u yerda qay ahvolda o'tirgan ekan", deb ko'zlaridan yoshlari daryo bo'lib oqibdi.

Bu fikr uni borgan sari ko'proq tashvishga solaveribdi. Keyin u ko'p o'ylab o'tirmay, onasining yoniga qarab yo'l olibdi. Borib qarasa, kampir o'sha o'zi o'tqizib qo'ygan yerida qimirlamay o'tirganmish.

– Men bu yerga sizni tashlab ketib juda yomon ish qildim. Men sizni aslo bu yerda qoldirib ketmayman. Qani, bo'ling, uyga qaytamiz. Men sizni yaxshilab parvarish qilaman, – debdi dehqon. Shunday qilib u onasini uyiga olib qaytibdi.

Biroq kampir avvalgidek yashayverishi mumkin emas ekan. Chunki uni, qachon bo'lmasin, amaldorlar ko'rib qolishlari turgan gap ekan-da!

Shularning mulohazasini qilgan dehqon yerto'la qazib, onasini o'sha yerga tushirib qo'yib qaray boshlabdi.



Kunlardan bir kuni xonga qo'shni mamlakatdan chopar bir xat olib kelibdi. Unda: "Menga kuldan ar-qon eshib beringlar. Agar aytganimni qilmasanglar, lashkar tortib borib, mamlakatingizning kulini ko'kka sovuraman", deb yozilgan ekan.

O'sha mamlakat hukmdorining lashkarlari juda kuchli bo'lib, uni mag'lub etishning iloji yo'q ekan. Qi-yin vaziyatda qolgan podshoh o'zining barcha yaqinlarini va maslahatchilarini chaqirib kengashibdi. Lekin hech kim bu mushkul masalani hal qilib bera olmabdi.

Shundan so'ng podshoh: "Kimda-kim kuldan arqon yasash yo'lini ko'rsatib bersa, podshohdan katta mu-kofot oladi", deb e'lon qildiribdi.

Odamlar bir-birlariga kuldan arqon eshilmasa, mamlakat talon-taroj bo'lishini aytib, vahima qila boshlashibdi.

– Bu hech kimning qo'lidan kelmasa kerak, – de-yishibdi.

Bu ishga hech kimning aqli yetmabdi. Shunda dehqon: "Buni balkim onam bilar", deb o'ylabdi.

Dehqon onasining huzuriga kirib, xalqning boshi-ga tushgan kulfatni gapirib beribdi. Shunda kampir kulib:

– Bu juda ham oson-ku! – debdi. – Buning uchun arqonni yaxshilab tuzli suvgaga botirib olinadi-da, keyin yoqib yuboriladi, vassalom.

“Qari bilganni pari bilmas” deganlari shu-da, debdi o‘ziga-o‘zi xursand bo‘lib dehqon. U shu zahoti saroyga boribdi-da, kuldan qanday qilib arqon eshish mumkinligini gapirib beribdi. Podshoh xursandligidan dehqonga bir talay pul beribdi. Eshish mumkin emas-dek tuyulgan arqonni choparning qo‘liga tutqazibdi. Chopar uni olib, tezda o‘z hukmdori huzuriga jo‘nab ketibdi.

Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, qo‘shti mamlakatdan yana elchi kelibdi. Bu safar u qimmatbaho tosh bilan xat olib kelibdi. Xatda: “Mana shu toshdan ip o‘tkazib beringlar. Aks holda, ustingizga qo‘shtin tortib borib, yurtingizni yer bilan yakson qilaman”, deb yozilgan ekan.

Podshoh toshning u yoq-bu yog‘ini aylantirib ko‘ribdi. Qarasa, toshda juda ham tor, buning ustiga egri-bugri teshik bor ekan. Undan ip o‘tkazishning mutlaqo iloji yo‘q ekan.

Podshoh yaqin odamlarini maslahatga chaqiribdi. Ular ham buni aqlga to‘g‘ri kelmaydigan ish deb topishibdi.

Shundan keyin toshdagи teshikdan ip o‘tkazgan odamga kattakon mukofot berishadigan bo‘lib, xalqqa xabar qilishibdi. Odamlar bu to‘g‘rida har qancha bosh qotirsalar ham baribir qo‘llaridan hech narsa kelmabdi.

Dehqon yana maslahatlashgani onasining huzuriga kiribdi.

– Buning hech qiyinligi yo‘q! Buning uchun tuy-nukning bir boshiga asal surtib qo‘yish kerak. Ikinchi tomonidan esa oyog‘iga ip bog‘lab chumolini qo‘yib yuborilsa, u asalning hidiga egri-bugri yo‘llar-dan yo‘rg‘alab o‘tadi. Toshdan ipni ana shunday qilib o‘tkazish mumkin, – debdi kulib kampir.

Dehqon yugurganicha saroyga boribdi. U podshoh-ning huzuriga kirib, onasidan eshitgan gaplarni ga-pirib beribdi.

Podshoh xursand bo‘lib, uni mukofotlabdi. Elchi bo‘lsa ip o‘tkazilgan qimmatbaho toshini olib qaytib ketibdi.

Elchi qaytib kelgach, qo‘shni mamlakat hukm-dorining boshi qotibdi. U: “Qo‘shni mamlakatda aqli odamlar bor ekan. Demak, u yerni qo‘lga kiritish oson emas”, deb o‘ylabdi.

Sinanoda esa odamlar dushman shahdidan qaytdi, endi bizga dag‘dag‘a qilmaydi, deb xotirjam bo‘lishibdi.

Biroq uchinchi marta yana elchi xat olib kelibdi. Bu safar u ikkita buya olib kelibdi. Xatda: “Shu ikki bi-yaning qaysi biri bolasi-yu, qaysi biri onasi ekanligini aniqlab bering. Aks holda, ustingizga lashkar tortib borib, yurtingizni yer bilan yakson qilaman”, deb yo-zilgan ekan.

Podshoh otlarga bunday razm solib qarasa, ikkovi ham bir-biriga juda o'xshar emish: ikkovining bo'yи bab-baravar, tusi ham bir xilda. Hatto ikkovi ham bir xilda choparmish. Yana xonning boshi qotibdi. Eng yaqin mulozimlarini chaqirtirib, maslahat so'rabi. Bu safar ham hech kim hech narsa deya olmabdi. Podshoh nochor qolib yana: "Kimda-kim shu yangi muammoni hal qilsa, mukofotga xohlagan narsasini beraman", deb xalqqa e'lon qildiribdi.

Xalq hayajonlanibdi. Mukofot olish orzusida odamlar saf-saf bo'lib saroyga kelishibdi. Ular qo'shni yurtning hokimi yuborgan biyalarni ko'rib, qaysini si onasi-yu, qaysinisi bolasi ekanini mutlaqo ajrata olishmabdi. Hatto viloyatdagi manman degan sehr-gar-afsungar va donishmandlar ham bunga fahmlari yetmay, boshlarini chayqab chiqib ketaverishibdi.

Dehqon yana onasiga murojaat qilibdi, onasi uning gapi ni eshitibdi-da, bu safar ham avvalgidek kulib turib:

– Bu ham mushkul muammo emas! Bu to'g'rida rahmatlik otang bir vaqtlar gapirib bergen edi. Ularning oldiga yangi o'rib keltirilgan bir quchoq o't tashlash kerak. Shunda ulardan biri shu zahoti ovqatlanishga kirishadi. Ana shunisi – bolasi. Ikkinchisi birinchisining to'ygunicha qarab turadi-da, keyin o'tning qolganini yeysi. Ana unisi onasi! – debdi.

Dehqon xursandlikdan yugurganicha saroyga boribdi-da:

– Biyalarning qaysi biri onasi, qaysi bolasi ekanini men bilaman, – debdi.

U otlarning oldiga yangi o't solgan ekan, onasi aytgan voqealar sodir bo'libdi: biri darrov o'zini ovqatga uringdi. Ikkinchisi uning ovqatlanayotganini bir chekkada kuzatib turibdi-da, keyin undan qolganini kelib yebdi.

Shunda podshohga va boshqa kuzatuvchilarga masala ravshan bo'lib qolibdi.

– Bunda hech qanaqa xato bo'lishi mumkin emas, – deyishibdi ular.

Shundan keyin podshoh bir parcha taxtaga "onasi" deb yozib, onasining bo'yniga, "bolasi" deb yozib, bolasining bo'yniga ilib qo'yib, biyalarni elchiga topshiribdi.

– Topdinglar, – deb elchi yurtiga qaytib ketibdi.

– Sen hammadan ham aqlli ekansan, tila tilagingni, xohlagan narsangni beraman, – debdi podshoh dehqonga.

Dehqon xondan onasiga shafqat qilishni so'rash uchun qulay fursat kelganini anglabdi.

– Menga mol-dunyo kerak emas, – debdi dehqon.

Podshoh hang-mang bo'lib qolibdi. Shunda dehqon shosha-pisha gapini davom ettiribdi. U:

– Men sizdan onamni saqlab qolishingizni so'rayman, – debdi.

U xonga bor gapni bat afsil gapirib beribdi. Bu gapni eshitib, xonning ko'zlari chaqnab ketibdi. U bu jum-

boqlarning barisi bir qari kampirning fahm-farosati tufayli hal bo'lganini eshitib hayron qolibdi.

– “Qari bilganni pari bilmas”, deb shuning uchun aytar ekanlar-da, – debdi u qoyil qolib. – Buni qarang-a, bir aqlli qari kampir hammamizni falokatdan qutqazibdi. Men qari onasini yashirib qo'ygan bu dehqonning gunohidan o'tdim. Bundan keyin qarib qolgan odamlarni boshqa orolga surgun qilishni bas qilaman.

Dehqon ko'p mukofotlar olibdi. Xalqning bo'lsa quvonchi ichiga sig'may ketibdi.

Shunday qilib, qo'shni viloyatning hokimi katta umid bog'lagan oxirgi jumboq ham muvaffaqiyatlari hal qilinibdi va hokim Sinano yurtini bosib olish fikridan qaytibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Qarisi bor uyning parisi bor,
Parisi bor uyning barisi bor.*

*Qarilikni donolik bezar,
Yoshlikni – kamtarlik.*

Har keksadan bir naql.

DO‘STLASHISH

Do‘stlik – odamiylik mulkini bezaydigan ziynat, insoniyatga in’om etilgan foydali imkoniyatdir.

“Do‘st shundayki, suhbatingni malol olmaydi, uzoqda yursang unutmeydi, boylik va kambag‘allikda o‘z-garmaydi, hojating bo‘lsa, amalga oshirish uchun jon-jahdi bilan kirishadi, yaxshiligini minnat qilmaydi, biror hojati bo‘lsa, sendan berkitmaydi, ahvolini sir tutmaydi, senga qancha ko‘p yaxshilik qilsa, uni shuncha kam deb hisoblaydi, sendan ozgina yaxshilik ko‘rsa, uni ko‘p deydi, barcha ishda o‘zini senga ham-nafas deb his qiladi”.

Muiniddin Juvayniy

DUSHMANNING DO‘STGA AYLANISHI (rivoyat)

Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda Odilxon degan podshoh bo‘lib, odillikda, saxiylikda tengi yo‘q ekan. Uning ikki o‘g‘li bo‘lib, ikkisi ham o‘z zam-

nasining pahlavoni, ammo kattasi badjahl, urish-qoq, kichigi esa uning aksi, chuqur fikrli, odil va rahmdil ekan. Davrlar o'tib mamlakatning tinchi buzilibdi. Ikki yondagi davlatlar qo'shin to'playot-gani va Odilxon mamlakatiga hujum qilmoqchiligi to'g'risida ovoza tarqalibdi. Odilxon tezda qo'shin to'plabdi. Katta o'g'li Zafarbekni bir qancha qo'shin bilan o'ziga yaqinroq davlatga dushmanni o'z uyasida yanchmoq uchun jo'natibdi. Kichik o'g'li Rahimbekni uzoqroq va kuchliroq davlatga yuboribdi. Uning maqsadi Zafarbek dushmanni yengib kel-sa, Rahimbekka yordamga jo'natish ekan. Oradan bir oy o'tib Rahimbek Zafarbekdan oldinroq, ancha sovg'a-salom bilan qurbonsiz jangdan qaytibdi. Ota o'g'lini xursand kutib olib, eson-omon qaytgani bilan tabriklabdi.

Rahimbek otaga ta'zim bajo aylab, so'zlashga izn so'rabdi: "Otajon, men urushgani borgan shahar podshosi o'ta odil va tanti ekan, – debdi. – U men ga do'st, sizga o'g'il qatori bo'lди. Men avvalo nizoni tinchlik yo'li bilan hal qilishni taklif qildim, biz ikki tomonga qo'shinimizni saf torttirib maydon o'rtasida uchrashdik va uzoq suhbatlashdik. Biz urush maydonidan qiyomatli do'st bo'lib qaytdik. Jahongirshoh hamma qo'shinlarimizni mehmon qilib, sovg'a-salom-lar berdi, eng quvonarlisi biror go'dak biz tufayli ye-

tim bo'lmedi, nohaq biror tomchi ham qon to'kilmadi. Biz har qanday vaziyatda bir-birimizga yordam qo'lini cho'zishga kelishdik".

Odilshoh xavotir bilan o'g'li Zafarbekni kutibdi. U katta talofotlar evaziga g'alaba qozonib, o'z vataniga qaytibdi. U xursand holda ota huzuriga kirib, g'alaba bilan tabriklabdi, qo'shni mamlakatni kultepaga aylantirib, xalqini qul qilib haydab kelganini aytibdi.

Shunda ota ilm ahlini yig'ib, o'rtaga munozara tashlabdi, qaysi o'g'li shohlikka munosib ekanini so'rabi.

Olimlar bir oz sukut saqlagach, bir ovozdan Ra-himbekning ishi tahsinga sazovor ekanini aytishibdi. "Chunki dushmanni do'stga aylantirmoq faqat oqillar ishidur. Har bir yetimning ohi arshni larzaga solar ekan, g'azabni tiymoq haqiqiy mardning burchidir. Bilagi baquvvat bir kishini yengsa, bilimli kishi esa o'z aqli va donoligi bilan minglab odamni yengib, o'ziga do'st qila oladi".

AYIQ VA IKKI DO'ST

(hikoya)

Nodir bilan Javlon bir mакtabda, bir sinfda o'qishadi. Odatda, ular birgalashib qishlog'i yaqinida joylashgan o'rmonga ba'zi yovvoyi hayvonlarni kuzatish uchun chiqishadi. Ana shu maqsadni ko'zlab ular yana o'rmonga chiqdilar. Ular o'rmonni ko'zdan kechirayotib, o'zлari tomonga lapanglab kelayotgan bahaybat ayiqqa ko'zлari tushdi. Ayiq dahshatli ovozda o'kira boshladi. Bolalar vahimaga tushib, dag'-dag' qaltirashди. Ikkalasi ham bunday holatlar uchun avvaldan hozirlab qo'yilgan ov miltig'iga jon-jahdi bilan tashlandilar. Nodir miltig'ini ayiqqa to'g'riladi va o'q uzdi, biroq, afsuski o'q bekor ketdi. Shu ondayoq u qo'lidagi miltig'ini otib yubordi-da, yaqinidagi daraxtga tirmashdi. Javlon ham allaqachon ayiqqa o'q otgan-u, ammo nishon xato ketgan edi. Ayiq unga yetib bo'ldi hisob. Javlon ilojsizlikdan o'zini yerga tashladi va o'zini o'likdek tutdi. Ayiq uning oldiga kelib, uni hidlay boshladi. Javlon na nafas olar, na harakatlanardi. Ayiq uni haqiqatan o'lgan gumon qilib, unga hech bir zarar yetkazmay yonidan uzoqlashdi. Chunki ayiq o'lik tanaga tegmas edi. Ayiq o'rmon ichkarisiga kirib ketib ikkovlari qolgach Nodir daraxtdan tushdi. U Javlonni mazax qilgancha:

– Ayiq qulog‘ingga pichirlab, nimalarni aytdi? –
deya so‘radi.

Unga javoban Javlon shunday dedi:

– Do‘s^t tanlashda ko‘p xato qilganimni aytdi u. Hovlidan oldin qo‘shni, yo‘ldan oldin do‘s^t talab qilishimni uqtirdi...

Mavzuga oid maqollar:

*Dushman siringni o‘g‘irlar,
Do‘s^t xatoingni to‘g‘rilar.*

*Do‘s^ting bo‘lsa, bog‘ing chamandir,
Do‘s^ting bo‘magani – fe‘ling yomondir.*

Do‘s^tsiz boshim – tuzsiz oshim.

GINA-KUDURATNING ZARARI

Qalbida birovga nisbatan gina (shikoyat, ta'na) saqlagan odam – qurum yig'a boshlagan mo'ri kabidir. Yig'ilgan qurumlar pech olovining gurkirab yonishiga xalal bergenidek, qalbdagi bu illat ijobiylar xislatlarning bo'y cho'zishiga, albatta, salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hikmatga boy bitiklari bilan dovrug' qozongan Abulqosim Firdavsiy bu haqda shunday yozadi:

*Kimki to'g'rilikni o'ylamas dildan,
Nafratga sazovor ul kishi chindan.*

* * *

*Xudo ne'matlarin oliysi idrok,
Aqlni vasf etar, kimki dili pok.*

KARTOSHKA KO'TARGAN ODAM

(*hikoyat*)

Bir inson keksa bir donishmandning huzuriga kelib so'radi:

– Siz juda aqlisiz. Doim yaxshi kayfiyatda yurasiz va hechqachon biron kishidan jahlingiz chiqmaydi. Menga ham o'zingiz kabi inson bo'lishimda yordan bering.

Qariya uzoq o'yladi-da, so'ngra ko'mak so'ragan insonga kartoshka va qop olib kelishini buyurdi.

– Mabodo, biror kimsa seni xafa qilgudek bo'lsa undan g'azablansang, o'sha odamning ismini kartoshkaga yoz-da, o'sha kartoshkani qopingga sol, – deyə uqtirdi qariya.

– Bor-yo'g'i shumi? – ajablandi u.

– Yo'q, bu hali hammasi emas. Ism bitilgan kartoshkalar solingan qopni hamisha o'zing bilan birga olib yurishing shart!

Maslahat so'rovchi donishmandning huzuridagi ketarkan o'zidagi illatdan qutulish uchun uning aytganlarini so'zsiz bajarishga jazm qildi.

Shundan so'ng oradan bir oz vaqt o'tdi. Kunlaysi o'tgan sari uning qopi kartoshkalar bilan to'lib, an-

chagina og‘irlashib qoldi. Qopni doim o‘zi bilan olib yurish nihoyatda noqulaylik tug‘dirar, bu ham yetmagandek undagi kartoshkalar achiy boshlayotgan edi. Ana shundan so‘ng u ba’dbo‘y hid anqiyotgan kartoshkalardan forig‘ bo‘lishning chorasini o‘ylay boshladi.

Kunlarning birida u donishmandning huzuriga kelib dedi:

– Bu kartoshkalardan qanday qutulishni bilolmayman. Birinchidan, qop juda og‘ir, ikkinchidan esa, kartoshkalar achiy boshladi. Boshqa biron narsa taklif qiling?

Biroq donishmand uning gapiga unamadi:

– Ko‘rdingmi, insonlarning qalblarida ham xuddi shu holat vujudga keladi, ammo biz buni ilg‘amaymiz. Ishlarimiz ko‘nikishlarga, ko‘nikishlar fe'l-atvorga, fe'l-atvorimiz esa qabih odatlarni o‘zlashtiruvchi inson bo‘lishimizga sababchi bo‘ladi. Men senga shu hodisani o‘z ko‘zing bilan ko‘rishing uchun zamin hozirladim. Arazlash yoki birovni xafa qilishdan oldin mana shu hodisani ko‘z oldingga keltir!..

TIL VA YURAK

(rivoyat)

Luqmoni hakimni bir kishi sotib olib, dargohida xizmat qildirardi va undagi ilmu hikmatni gohi-gohida sinab ko'rardi. Bir kuni imtihon tarzida buyurdi:

- Ey Luqmon, menga bir qo'yni so'yib, eng yaxshi a'zosini olib kelgin.
- Bosh ustiga, – dedi Luqmon va qo'yni so'yib, tili bilan yuragini xojasiga eltdi.

Ancha muddat o'tgandan keyin xoja uni yana cha-qirib, dedi:

- Ey Luqmon, bir qo'yni so'ygin-da, menga uning eng yomon a'zosini olib kelgin.

Luqmon qo'yni so'yib, yana tili bilan yuragini ko'tarib keldi.

Xoja dedi:

- Nega qo'yning eng yaxshi a'zosini so'rasam ham, eng yomonini so'rasam ham til va yurakni ko'tarib kelding?

Luqmon dedi:

- Ey xoja, agar pok bo'lsa, hech narsa til va yurakdan yaxshi emas. Agar nopok bo'lsa, hech narsa ular-dan yomonroq emas.

Mavzuga oid maqollar:

Zang temirni kemirar,
G'am – odamni.

Tilingni to'g'ri tutolmasang,
Dilingni to'g'ri tut.

Ilon o'z egrilagini bilmas,
Tuyaning bo'ynini egri der.

OCHKO'ZLIK

Abu Ali ibn Sino dedi:

- *Odatda, odam taomni yeydi, lekin taom ham ba'zida odamni yeyishi mumkin.*
- *Bu qanaqa taom ekan? – hayron bo'lib so'rashdi undan.*
- *Haddan tashqari ko'p yeyilgan taom, – javob berdi ulug' hakim.*

OCHKO'ZLIK BALOSI

(rivoyat)

Ancha yillar avvalgi qishloqlarning birida uch yigit – uch do'st bo'lgan ekan.

Ulardan birinchisi – Karim oqko'ngil, mehnatkash, saxiy va olijanob bo'lib, ikkinchisi – Salim ham undan qolishmas ekan, ammo uchinchisi – Halim butunlay ularning aksi ekan.

Uch do'st bir kuni maslahatlashib, dunyo kezish uchun sayohatga chiqmoqchi bo'libdi. Ular yuz til-

lodan pul to'plashibdi-da, bir karvonga qo'shibil yo'lga tushishibdi. Yo'l yurib-yurib bir shaharga yetishibdi. Shunda Karim debdi: "Do'stlarim, shukrki, barchamizda yuz tillidan, teng miqdorda pul bor. Kelinglar, avvalo ehtiyojimizga yetgulik sarf-xarajatni men ado etay. Bisotim tugagach sizlar sarf aylarsiz".

Do'stлari rozi bo'lishibdi. Ular ko'p shaharlarni kezishibdi. Shaharlarning birida Karimning puli tugab, navbat Salimga kelibdi. Salim ham mablag'ni zaruriy ehtiyojlarga sarflay boshlabdi. Ular sayohatdan ko'ngillari qonib, uyga qaytish taraddudiga tushibdilar. Go'zal shaharlardan so'ng uzoq cho'l-u bi-yobonlardan o'tgan do'stlar ancha toliqqan bo'lishlariqa qaramay, manzilning tobora ona yurt sari yaqinlashishi ularni hayajonga solardi. Ana shunday kundarda Salimning tillolari nihoya topibdi. Endi navbat Halimga kelibdi. Shu kuni Halimning ko'ngli bo'linibdi: "Shuncha boylikni sarflab yuboradigan ahmoq yo'q!... Sheriklarimga pulimni yo'qotib qo'ydim deyman-da, ularni adashtirib, uyimga yetib olaman".

Shayton vasvasasi uni yo'ldan ozdiribdi, ochko'zligi xuruj qilib, har narsani nazorat qilib turguvchi zot – Yaratganni yodidan chiqaribdi va bir kosa qatiqqa qo'shib yuz tillo oltinni yutib yuboribdi. Bir oz fursatdan so'ng nafasi siqilib, olamdan o'tibdi. Chorasiz qolgan do'stлari uning uchun ancha qayg'urishibdi.

Halimning hamyonidan hech vaqo chiqmabdi. O‘zlaridagi bor narsani sotib, marhumning so‘nggi rasm-rusumlarini o‘rniga qo‘yib ko‘mishibdi. Keyin esa kavonsaroya qaytishibdi.

Qorinlari och ikki do‘st uzoq o‘ylashibdi. Nochor ahvoldan chiqishning boshqa yo‘lini topolmagan do‘stlardan biri shunday debdi: “Do‘stimizni Alloh rahmat qilsin... Rahmatli tillolarni yutib yuborganmi deyman-da, o‘lmasidan avval pul yonida edi-ku!.. Kel, qabrni olib, uning qornini yorib ko‘ramiz. Nochorlikdan shu ishga qo‘l uranimizni ko‘rib turgan zot bizni kechirar”.

Chorasiz qolgan ikki do‘st tongda borib qabrni oshibdi. Ne ko‘z bilan ko‘rishsinki, qabr ichida do‘stining o‘rnida sohibjamol bir qiz yotgan ekan. Uning yuzidan sochilayotgan nурдан qabr ichi munavvar, butun bo‘yi-bastidan mushk hidi anqir ekan. Aql bovar qilmas go‘zallik qarshisida o‘zini yoqotgan ikki do‘stning hushlarini yig‘ib olishi oson kechmabdi. Sekin-asta o‘zlariga kelib, es-hushlarini yig‘ib olgach, qabrni ne maqsadda ochishgani esiga tushibdi. Bedad tavba-tazarru qila-qila, qizning ikki qulog‘idagi zirak va qo‘lidagi olmos ko‘zli uzukni ohista olishibdi.

“Do‘stim, – debdi Karim Salimga. – Bu mo‘jizing oxiri baxayr bo‘lsin. Agar muhtojlik majbur qilmaganida shu ishni zinhor qilmasdim, senga ham qildirmasdim”.

Ular qabrni avvalgi holatiga keltirib karvonsaroyga yo'l olishibdi. Bir oz nafas rostlagach, uzukni bozorga olib borishibdi. Zargarlarning boshi qotgan, uzukni hayratlanib tomosha qilarmish-u, lekin uni narxlashga botina olmasmish. Bozor tugar vaqtida bozor oqsoqoli kelib: “Ey musofirlar, o'g'risiz desam o'g'riga o'xshamaysiz, to'g'ri desam bu uzuk aslida sizlarniki bo'lмаган. Bu yerda hech kim uni baholay olmaydi. Agar rozi bo'lsangiz bir qopcha oltin beray”, debdi. Do'stlar rozi bo'lishib uzukni sotishibdi. Ular karvonsaroyga qaytib, yaxshi yeb, yaxshi kiyinishibdi. Ko'п ehsonlar ulashibdi. Beva-bechoralar va qarovsiz qolgan bolalarni yedirib, kiyintirishibdi.

Karvon yana yo'lga tushibdi. Uzoq yo'l yurib g'ayridinlar o'lkasiga kelishibdi. Bu o'lka juda obod, xalqi to'q, podshosi odil va boylari saxiy ekan. Shu yerga kelganda karvonga ergashib kelib qolgan bir o'g'ri oltin solingan qopchanı o'g'irlab ketibdi. “Nanchora, – deyishibdi do'stlar. – Xudoning o'zi berdi, o'zi oldi. Endi isirg'ani sotib, pulini ehtiylotlamasak bo'lmaydi”. Ular bozordagi mashhur zargarlik do'koniga kirib, isirg'ani ko'rsatishibdi. Zargar taqinchoqqa uzoq termulibdi-da, so'ng:

– Mening davlatim bu isirg'aga yetmaydi. Ozgina sabr qilib, shu yerda choy ichib o'tiringlar. Men bor

boyligimni to'plab kelaman, – deb do'kondan chiqibdi va to'g'ri shahar podshosi huzuriga yo'l olibdi.

– Shohim, bir qoshiq qonimdan keching. Men bir necha yil xizmat qilib, eng nodir tillolardan qizingizga yasab bergen isirg'ani ikki o'g'ri do'konimga olib kelishdi. Men ularni aldab, ustidan qulflab keldim, – debdi .

Podsho darg'azab bo'lib, "menday ulug'" podshohdan qo'rqlmay, qizimning qabrini ochishibdi. Nahotki, ular jallod qo'lidagi o'limini shunchalar yaxshi ko'rishsa", deb o'yabdi.

Musofirlarni olib kelishga bir necha mirshablarni jo'natishibdi. Ular ikki do'stni shoh huzuriga olib kelishibdi.

Shoh debdi:

– Ey yigitlar, nahotki qizimning qabrini ochgan bo'lsangiz. Qanday qilib soqchilarни aldab o'tdingiz yoki lahm kavladингизми? Sizlarni qanday jazo kutayotganini bilasizlarmi o'zi?

Yigitlar dag'-dag' qaltirab, bo'lgan voqeani mufasal so'zlab berishibdi.

Podshoh hayron bo'lib vazirga qarabdi:

– Gaplariga ishonsa bo'ladimi?

Shunda vazir aytibdi:

– Shohim, eshitganlarimizni tekshirib, keyin xulosa chiqaraylik. Ruxsat eting, malikaning qabrini ko'raylik, bularni jallod hukmiga topshirish qochmas.

Podshoh o‘z mulozimlarini malika qabrini ochishga yuboribdi. Ular vazir boshchiligidagi borib, malika qabrini ochishibdi.

Oh, ana mo‘jiza!.. Malika qabrida Halim ko‘ksida va bo‘yniga ilon chirmashib yotibdi. Undan tara layotgan badbo‘y hidga inson zoti toqat qilolmasdi. Mulozimlar bo‘lgan voqeani shohga xabar qilishibdi. Podshoh Karimni garovga olib, o‘zi bilan olib qolib-di-da, Salimga esa vaziri va bir nechta mulozimlarini qo‘shib, Halim ko‘milgan qabrga jo‘natibdi.

Elchilar ikki do’stning to‘g‘riso‘zligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib va tasdiqlab, shoh huzuriga qaytishibdi.

Podshoh hayron, hamma hayratlanibdi. Podshoh yana vaziriga qarabdi.

– Shohim, keling, bir musulmon qozini chaqirib, bo‘lgan voqeani bayon qilaylik. Qani, qanday hukm chiqararkin, – debdi vazir.

Shoh rozi bo‘libdi.

Qozikalon, avvalo, malikalarning kanizaklari va yaqinlarini, so‘ngra Halimning yaqinlarini chaqirib, ularning hayoti dunyoda ne yumushlar bilan mashg‘ul bo‘lgani hamda qanday fazilat-u, xislarlarga ega bo‘lgani haqidagi obdon surishtiribdi. Ma’lum bo‘lishicha, malika ni hoyatda saxiy,adolatli va pokiza, iymonli, diyonatli bo‘lib, ayni sifatlarini pinhona tarzda amalga oshirishi ni xush ko‘rar, isyonkorlik yoki xiyonat kabi illatlar bu-

tunlay unga begona edi. Halim bo'lsa, tamoman uning aksi: e'tiqodi sust, yetim molidan qo'rwmaydigan, amali ahdiga xilof, hatto otasi olamdan o'tganda undan qolgan merosni singil va ukalari bilan bo'lishmay, g'irromlik yo'li bilan o'zlashtirib olgani aniqlanibdi.

Shundan so'ng qozi Halimning qabrini ochtirib, uning qornidan tillolarni olishni va 33 tilloni Karimga, 33 tilloni Salimga, 33 tilloni Halimning oilasiga berishga va qolgan bir tilloni qozi haqi deb e'lon qildi.

Bu voqealarni chetdan kuzatib turgan podshoh qozining hukmini odilonaga deb topib, unga ko'p in'omlar tortiq qildi.

Mavzuga oid maqollar:

*Dardning sababi – tomoq,
Qarab yemagan ahmoq.*

*Nafsini tiygan sulton bo'lur,
Nafsini tiymagan ulton¹ bo'lur.*

Ochko'zning o'zi to'ysa ham ko'zi to'ymas.

¹ Ulton – qoramol terisidan tayyorlangan charm; tagcharm.

MANMANLIK

Kamtarlik insonning qadr-qimmatini qanchalik yuskaklikka ko'tarsa, manmanlik – maqtanchoqlik shunchalik uni tubanlikka yetaklaydi.

Manmanlik nodonlik, kalta o'ylaganlik oqibatida yuzaga keladi. Maqtanchoq xoh bilimi bilan, xoh biror bajargan ishi bilan qaddini kerib, ovozini ko'tarib qanchalik maqtanmasin, kamtar bilimdonlarning, mazkur ishda o'zidan-da mahoratliroq himmatlilarning qarshisida aybdordir. Shu bois dono xalqimiz bu haqda:

*Qamish bosh ko'tarib bo'yro bo'ldi,
Tuproq bosh ko'tarib to'tiyo bo'ldi, – deydi.*

MAQTANCHOQ OVCHI

(O'zbek xalq ertagi)

Qadim zamonda bir ovchi bo'lgan ekan. U har kuni ertalab ov qilgani o'rmonga borarkan. Ovlagan hayvonlarining go'shtini uyiga olib kelib, terisini dehqonlarga berarkan. Ovchining yomon bir odati bor

ekan: kechqurun uyga kelganida xotiniga o'shqirib, derkan:

– Dunyoda mendar o'tadigan ovchi bormi?

Xotini qo'rqqanidan:

– Yo'q, mening xojam, – deya javob berarkan.

– Unday bo'lsa, devorning yoniga borib tur, qu-log'ingdagi ziragingni nishonga olaman!

Bechora xotini qo'rqqanidan titrab-qaqshab devor yoniga borib turarkan. Ovchi zirakni nishonga olib, o'q uzarkan. O'q to'g'ri zirakka tegarkan.

Har kuni kechqurun xotin bechora erining ana shu qilig'iga bardosh berishi kerak ekan. Qishloq ahli buni bilar, bechora xotinga rahmi kelarkan.

Kunlardan bir kun ovchi qishloqdagi qahvaxona-ga kiribdi-da, o'zining merganligini, qanchadan-qan-chacha tulki va bo'rilar ni o'ldirganini aytib, bitta o'q bi-lan sherni ham ag'daraman, deb rosa maqtanibdi. Ox-iri eshitib o'tirganlarning sabr-toqatlari tugabdi-da, uning boplab ta'zirini bermoqchi bo'lishibdi. Ovchi-ning quyon bilan qarg'adan boshqa hech narsani ovlay olmasligi hammaga ma'lum ekan.

Ulardan biri debdi:

– So'nggi paytlarda dalalarimizda bahaybat bir ayiq paydo bo'lib qoldi. Sira odamlarga tinchlik ber-mayapti. Ekin-tikinlarimizni payhon qilib ketyapti. Ayiqni gumdon qilish qo'lingdan keladimi?

– Ayiq keldi deguncha menga xabar qilinglar, o'sha zahoti tinchitaman, – debdi ovchi.

– Amaki, ayiq unaqa-bunaqa emas, juda katta-ya!

– Nima, mening menganligim eslaringdan chiqdimi?

– Bilamiz, bilamiz! – deyishibdi odamlar.

Shu payt qahvaxona qiy-chuv bo'lib ketibdi: bahay-bat ayiq kallasini osiltirib xonaga kirib kelibdi. Odamlar to'g'ri kelgan yerga berkinishibdi. Ovchi esa ayiqni ko'ribdi-yu, qo'shog'iz miltig'i yelkasidan tushib, stol tagiga kirib ketibdi.

– Yordam beringlar, falokat bostirib keldi! – deb baqiribdi u.

Ayiq o'kirib to'g'ri ovchi bekingan stol tomonga ke-laveribdi.

– Voy, ayiq ovchini tanidi! Hozir uni burda-burda qilib tashlaydi, – deyishibdi buni ko'rganlar.

Ovchi bu gapni eshitib, o'qday uchib ko'chaga chiqibdi va qishloq bo'ylab:

– Yordam beringlar, yordam! – deb baqirib ke-taveribdi.

Ayiq uning orqasidan boraveribdi, qishloq bolalari kula-kula izma-iz ketaverishibdi. Bir payt ovchi o'ziga kelib, orqasiga qaragan ekan, ayiq terisini yopin-gan bola ko'rilibdi.

Ovchi izza bo'lib, arang uyiga yetib olibdi. Shundan keyin sira qahvaxonaga qadam bosmaydigan bo'libdi.

Kunlardan bir kuni ovchining xotini qo'shni qishloqdag'i yetmish yashar bir kampirnikiga mehmonga boribdi-da, o'zining boshiga tushgan savdolarini gapirib beribdi:

– Har kuni kech bo'ldi deguncha erim: “Dunyoda mendan o'tadigan ovchi bormi?” deb o'shqirgani-o'shqirgan. Keyin meni devor yoniga turg'azib qo'yadi-da, qulog'imdag'i ziragimni nishonga oladi. Har kuni jon titrog'idaman.

– Oh, qizim, bu dahshat-ku!.. Xudo ko'rsatmasin, o'q boshingga tegsa-ya!..

– Ayting, onajon, bu odamdan qanday qilsam qutulaman-a?

Kampir qo'lidagi tasbehini o'girib, biroz o'ylab turibdi-da, debdi:

– Kechqurun o'zining merganligini pesh qilib yana vaysaydigan bo'lsa: “Ha, sendan yaxshi otadigan mergan ham bor! Qof tog'inining naryog'ida yashil tepalik bor. O'sha yerda bir habash yashaydi, u sendan ko'ra mohirroq mergan. Ishonmasang, borib o'z ko'zing bilan ko'rib kel”, degin. U bu gapga chidolmay, habashni axtarib ketadi va shu bilan bu odatini tashlaydi.

Ayol sevinib ketibdi. Kechqurun eri uyga kelishi bilan yana so'rabdi:

- Dunyoda mendan o'tadigan mergan bormi?
- Bor.

- Kim ekan u?
- Kim bo'lardi, ovchi habash-da. U Qof tog'ining naryog'idagi yashil tepalikda yashaydi. U senga qara-ganda mohir mergan hamda tez chopadi.
- Unday bo'lsa, o'sha ovchini topganim bo'lsin! Ertaga erta bilan chorig'im bilan temir hassa tayyor-lab, to'rvaga oziq-ovqat solib qo'y. Kun chiqmasidan yo'lga tushaman, – debdi ovchi.

Xotini azbaroyi suyunganidan kechasi bilan ux-lolmabdi. Ovchi quyosh tog'lar ortidan endigina ko'tarilgan paytda uyg'onibdi. Xotini hamma narsani tayyorlab qo'ygan ekan.

– Xayr endi! Qof tog'idagi o'sha ovchini, albatta, topaman! – deb ovchi yo'lga ravona bo'libdi. Xotini har kuni bo'ladigan jon titrog'idan qutulibdi.

Ovchi tog'lardan, vodiylardan oshibdi. Nihoyat, quyoshdek charog'on bir mamlakatga yetib kelibdi. Tevarak-atrofda hech zog' yo'q emish. Osmonda qandaydir dahshatli qushlar uchib yurganmish, tog'lari ham ajib rangda bo'lib, daraxtlari tikanli emish. Ovchi Qof tog'i qaysi ekanligini so'ramoqchi bo'lgan ekan, odam zotini uchratmabdi. Yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, eski bir tegirmonga yetib kelibdi. Ich-kariga kirgan ekan, yoshi yuzlardan oshib qolgan bir cholni ko'ribdi. .

– Ey bo'tam, bu jazirama vodiylarda nima qilib yuribsan? Yigirma yildan beri bu yerdan biron ta odam bolasi o'tmadi.

– Nega?

– Bu yer – o'lim vodiysi. Nima qilyapsan bu yerda?

– Men Qof tog‘ining naryog‘ida yashaydigan mengan habashni qidirib yuribman. Odamlarning gapiga qaraganda, u mendan yaxshi otarmish va tez choparmish. O’sha bilan bellashgani ketyapman.

– G‘alati ekansan-u, – debdi chol, u qo‘lini oldingga cho‘zibdi-da, – ko‘ryapsanmi, hov tumanga o‘xshab tog‘ ko‘rinyapti? Shu – Qof tog‘i bo‘ladi. Sen undan oshib o‘tolmaysan.

– Nega?

– Odamlar Qof tog‘idan faqat po‘lat yo‘l orqali o‘tadilar. Shu tor yo‘lda sher o‘ziga makon qurgan bo‘lib, odam bolasini omon qo‘ymaydi. U yerdan eson-omon o‘tgan odam devlar mamlakatiga boradi. U yerda olmos, zer-u zabarjadlar bizdag‘i oddiy toshlarga o‘xshab ko‘chalarda yumalab yotibdi.

– Men sherni o‘ldirib, sehrli mamlakatga o‘taman!

– Sher – sehrli. Juda sodda odamga o‘xshaysan, mayli, men senga yordam beray. Chol shunday debdi-da, unga bir burda non beribdi. – Bu «yaxshilik keltiruvchi» sehrli non. Agar boshingga biron musibat tushsa, shu nondan ushatib tashlasang, balo daf bo‘ladi.

Ovchi choldan sehrli nonni olibdi-da, yo'lga tushibdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Axiri Qof tog'iga – po'lat yo'lga yetib kelibdi. Qarasa, ko'zlaridan o't chaqnab sher yotgan emish. Sher unga tashlanibdi, ovchi sehrli nondan sindirib tashlagan ekan, u o'tli ustunga aylanib, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Ovchi po'lat yo'lga yuribdi, bir vaqt oldida zulmat koshona paydo bo'libdi. Biroz yurgan ekan, ovoz eshitilibdi:

– Ey odamzod, devlar mamlakatida nima qilib yuribsan?

– Men yashil tepalikdagi ovchi habashnikiga ket-yapman, – deb javob beribdi ovchi.

– Yo'l berk, o'tolmaysan.

Shunda ovchining esiga sehrli non tushibdi. Nondan sindirib tashlagan ekan, ajoyib qushlar paydo bo'lib, nonni yeya boshlashibdi. Birdan hamma yoq yop-yorug' bo'lib ketibdi. Ovchi qarasa, daryo paydo bo'libdi, unda bir necha qayiqlar turganmish. U qayiqqa o'tiribdi-da, daryoning narigi tomoniga o'tib olibdi.

Shu yerda po'lat yo'l tugabdi. Oldidan ajdaho chiqibdi. Unga ham nondan tashlabdi, shunday qilib, po'lat yo'lidan chiqib olibdi.

Ovchi atrofiga qarasa, hammayoq ko'm-ko'k yaylov emish. Yaylovda to'q sariq lolalar, binafsha va boychechaklar ochilib yotganmish. Buloqlarda suvlar

sharqirab oqib, daraxtlar gullab yotganmish. Ular-ning tagida qushlar uchib yurganmish. Ovchi biroz yurgan ekan, tepaliklar uchrabdi. Tepaliklar har xil rangda emish. Nariroq yurgan ekan, tepalikda uxlab yotgan bahaybat habashni ko'ribdi.

“Xotinim aytgan mergan mana shu bo'lsa kerak”, – deb o'ylabdi ovchi va baqiribdi:

– Ey habash ota! Sen dunyoda eng mergan va tez-chopar emishsan, men sen bilan bellashgani keldim!

Habash chiyillagan ovozni zo'rg'a eshitibdi. Ko'zini ochib qaragan ekan, pashshadek ovchini ko'ribdi. Uni kaftiga olibdi-da, so'rabdi:

– Nima deysan?

– Oldin men sen bilan chopishib, keyin otishaman, – debdi ovchi.

Uning gapiga habash kulgan ekan, osmonda mo-maqaldiroq gulduragandek bo'libdi. Keyin debdi:

– Men senga to'qqiz kun muhlat beraman, bor kuching bilan yugur. Bordi-yu, men ana shu muhlatdan oldin Qizil tog'da senga yetib olsam, o'ldiraman.

– Bo'pti, – debdi ovchi va Qizil tog' tomonga yugu-rib ketibdi.

Bir necha kun yuguribdi, orqasiga qarasa, habash yetay deb qolgan emish. Bir vaqt yer haydayotgan devni ko'rib qolibdi. Ovchi unga nondan tashlabdi-da, debdi:

- Devlar otaxoni, meni ana shu habashdan qutqar!
- Agar sehrli nondan bermaganingda, seni yerdim, debdi dev. – Nima niyating bor?
- Yugurishda ana shu habash bilan bellashgan edim, uning qadami juda katta ekan, yetib olsa, meni yeysi.

Dev engashib, ovchini tishining kovagiga yashirib qo'yibdi. Habash yetib kelib, so'rabdi:

- Shu yerdan odam o'tdimi?
- Bu yerdan hech zog' o'tmadi, – debdi devlar otaxoni. Habash u yoq-bu yoqqa qaragan ekan, hech kim ko'rinxabdi. U o'z tog'iga qaytib kelibdi-da, uyquga ketibdi.

Ovchi devning og'zida nafasi qaytib, baqiribdi. Dev uni tishining kovagidan olgan ekan, ovchi so'rabdi:

- Devlar otaxoni, bu tishingni kim sindirgan?
- Ey odamzod, biz qirq og'a-ini edik. Bir kuni ovga chiqdik. O'zimizcha biz ko'pmiz va hammadan yaxshi otamiz, deb maqtandik. Bir kuni bizga qaraganda bir necha marta kuchli ovchi uchradi. Uning bo'yi juda baland, hatto ummon ham tizzasidan kelardi. U den-gizda kit ovlab, quyoshda pishirardi-da, yutib yubora-verardi. Biz uni masxara qilgan edik, orqamizdan quvib, bir necha akalarimni nobud qildi, ba'zilari g'orga kirib jon saqlab qoldi. Menga u tosh otdi, tosh tishim-ga tegib, sindirdi. Ko'rdingmi, maqtanchoqlik juda yo-

mon illat! Hamisha sendan ko'ra tez chopadigan va o'ta mergan odam topiladi. Seni bu o'lkalarga ana shu maqtanchoqlik olib kelgan. Agar sen menga bundan keyin aslo maqtanchoqlik qilmayman, deb so'z bersang, qimmatbaho zabarjadlar berib, ko'z ochib-yumguningcha uyingga olib borib qo'yaman, – debdi dev.

Shunda ovchi o'zining naqadar ahmoqligini anglabdi va bundan keyin aslo maqtanchoqlik qilmayman, deb ont ichibdi. Dev bir quti oltin, zumrad, yоqut beribdi. Keyin undan sehrli nonni olib yerga tashlagan ekan, uchar qush paydo bo'libdi. Ovchi unga minib, ko'z ochib-yumgunicha uyiga yetib ke-libdi. Xotini ovqat tayyorlayotgan ekan. Ovchi unga boshidan kechirgan voqea-hodisalarни so'zlab beribdi va bundan keyin aslo yaramas ishlar qilmaslikka so'z beribdi. Er-xotin dang'illama saroy qurishib, rohat-farog'atda hayot kechirishibdi.

Mavzuga oid maqollar:

Bilgan kishi bildim demas,

Bildim desa, bilgan emas.

Jom qozonning toti chiqar,

Maqtanchoqning moti.

HASADGO'YLIK

*Odamlar orasining buzilishi hasadga borib taqaladi.
“Dunyoda hasad va ginadan og’irroq yuk yo‘q.
Chunki hasadchi odam hamisha boshqalarning shodligidan aziyat chekib, g‘am ostida yuradi. O‘zgalar rohatidan doimo zahmat chekadi.”*

Muhammad Husayn

*“Kimki hasad o’tin yoqsa jahonda,
Bu o’t uning o’zin qo’ymas omonda!”*

Xoja Samandar Termiziy

HASADGO'YNING ULUSHI

(Koreys xalq ertagi)

Qadim yillarning birida qishloqda yashovchi yosh dehqon odam bo‘yidek keladigan turp yetishtiribdi. Dehqon yigit uni shu tumanni uzoq yillardan buyon boshqarib kelayotgan hokimning huzuriga olib kelidi va boshini eggancha gap boshlabdi:

– Hokim janoblari, bu yil dehqonchilik uchun serhosil bo'ldi. Men o'zim yetishtirgan turplarning eng kattasini sizga olib keldim. Iloji bo'lsa shuni qabul qilsangiz.

– Keltirgan narsangni ololmayman. Sen turmu-shingni yaxshilash uchun dehqonchilik qilgansan. Shu sababli uni olib ket-da, o'z manfaating yo'lda foydalan, – debdi hokim.

– Unday emas, janob hokim. Men bir necha yillardan beri dehqonchilik qilaman. Ammo bunday katta va mazali turpni birinchi ko'rishim. U sizning adolatli hokimlik qilayotganingiz uchun xudoning in'omi bo'lsa kerak. Nima bo'lgandayam, samiy hadyamni rad etmasangiz, – chin dildan iltimos qilibdi dehqon yigit.

Hokim: "Uning qalbi shunchalik pok bo'lsa, samiy hadyasin qanday qilib rad etishim mumkin?" – deb o'ylabdi va xizmatkorini chaqirib undan so'rabdi:

– Bu yigitni taqdirlamoqchiman, arzirli biror narsa bormi?

– Ha, yaqinda bir dehqon tuhmatdan qutqarganiningiz uchun minnatdorchilik evaziga buzoqcha tashlab ketgan edi, o'sha turibdi, – javob qilibdi xizmatkor. Hokim:

– Ayni muddao bo'ldi. Darhol uni olib kel, – debdi va dehqonga yuzlanib so'rabdi:

– Uyingda sigir bormi?

- Yo‘q, hali sotib ololganim yo‘q.
- Unday bo‘lsa, olijanobliging uchun bu buzoqchani senga sovg‘a qilaman. Uni yaxshilab boqib, xonadoningni yanada fayzliroq bo‘lishiga harakat qil, – debdi hokim.

Kutilmagan iltifotdan hayratlangan dehqon buzoqchani olib uyiga jo‘nabdi. Bu xabar bir zumda butun mahallaga tarqalibdi. Yigitning hasadgo‘y qo‘schnisi yangilikni eshitib: “Bitta turpga – bitta buzoq bersa, men uyimdagи eng katta cho‘chqamni hokimga sovg‘a qilaman. Shunda, shubhasiz, katta ho‘kizga ega bo‘lamан!” – deb o‘ylabdi. U cho‘chqasini yetaklab hokimning uyiga yo‘l olibdi.

– Hokim janoblari, anchadan beri cho‘chqa boqaman, lekin bunchalik katta cho‘chqani birinchi ko‘rishim. Bu odillingiz uchun xudoning inoyati emasmi? Iltimos, samimiyoq sovg‘amni qabul qiling, – debdi.

Bu safar hokim hadyani so‘zsiz qabul qilibdi. Xizmatkorini chaqirib undan so‘rabdi:

- Taqdirlashga arzigelik narsa topiladimi?
- Ha, bir necha kun avval yosh dehqon yigit bu yil dehqonchilik yaxshi bo‘ldi, deb olib kelgan turp bor, – debdi xizmatkor.

Dehqonning olib kelgan turpini qo‘schnisiga tortiq qilishibdi.

Hasadgo‘y qilmishidan afsuslanibdi.

BIROVGA CHOQ QAZIGAN, O'ZI YIQILAR (rivoyat)

Qadim zamonda bir boy odam bo'lib, uning xonadoni tinchlik-xotirjamlik degan ne'matdan mosuvo ekan. Oila ahli bir-biri bilan chiqishmay, tez-tez san-manga borishar, oqibatda turli mojarolar yuzaga kelaverar ekan. Ammo qo'shnisi garchi kambag'al bo'lsa ham tinch va osoyishta yashar ekan. Ularga hamma havas qilar, janjaldan boshi chiqmaydigan boy ularga hasad qilarkan. Boyning bu hasadi bora-bora dushmanlikka aylanibdi. U qo'shnisining tinchligini buzishga ahd qilibdi. Bir kuni u qo'shnisining uzoqroq qishloqqa safarga borishini eshitibdi-da, bir kosa xolvaytarga zahar qo'shibdi. Keyin uni qo'shnisiga berib debdi:

– Safarga ketayotganingizni eshitib, qo'shnichilik hurmatidan xolvaytar pishirtirdim. Ochiqqan chog'in-gizda tanovul qilarsiz.

Oqko'ngil kambag'al qo'shnisining bu qilmishi-ni muruvvat deb tushunibdi, yarim yo'lga yetganda suv bo'yida dam olib o'tirgan ikki yigitga ko'zi tushib-di. Yaqinroq borib qarasa, ular xolvaytar bergen boy qo'shnisining o'g'llari ekan. Yigitlar qo'shnisini ko'rib:

– Otaxon, rosa ochiqqanmiz, ovqatingiz yo‘qmi? – deb so‘rab qolishibdi.

Shunda kambag‘al ularga: Mana buni otangiz beruvdilar, sizlarga nasib qilgan ekan, – deb xolvaytarni ularga beribdi.

Yigitlar uni yeyishibdi-yu, bir zumda jon taslim qilishibdi.

Qo‘rqib ketgan kambag‘al darhol xolvaytarning qolgan qismini olibdi-da, to‘g‘ri shahar qozisiga uchrab, bor gapni aytibdi. Qozi marhumlarni oldirib keilib, boyni ham chaqirtiribdi-da, unga pishirgan ovqati va murdalarni ko‘rsatibdi. Boy bolalari ustiga o‘zini tashlab, jon taslim qilibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Xashak o‘ti xonani kuydirar,
Hasad o‘ti tanani kuydirar.*

*Yaxshining ko‘ngli – bog‘,
Hasadgo‘yning ko‘ngli dog‘.*

*Hasad ko‘chatini ekkan,
Balo mevasini yer.*

YOLG‘ONCHILIK

“Rostgo‘ylikda xavf-u xatar ko‘rsanglar ham, faqat rost so‘zlanglar. Shunda najot topasizlar. Garchi foyda ko‘rib turgan bo‘lsangiz ham, yolg‘ondan saqlanilgilar. Chunki baribir yolg‘onning oxiri voy.”

Hadisdan

“Yolg‘onchilik inson qalbi va jismiga hadsiz uqubat yuklaydi.”

Sh. Rustaveli

“Shira – maysani, zang – temirni, yolg‘on esa qalbni kemiradi.”

A. P. Chexov

GUL O‘STIROLMAGAN BOLA *(Koreys xalq ertagi)*

Qadim zamonlarda bir mamlakatda donishmand bir qirol hukmronlik qilgan ekan. Uning farzandi yo‘q ekan. Kunlardan bir kuni qirol: “Mamlakatdagi eng



vijdonli bolani topib, uni o‘zimga farzand qilib olsam”, deb orzulabdi va mamlakatdagi barcha bolalarga gul urug‘i ulashishni buyuribdi. “Kimki shu urug‘dan eng chiroyli gul yetishtirsa shu mening o‘g‘lim yoki qizim bo‘ladi”, – deb e’lon qilibdi u.

Hamma bolalar urug‘ni ekib, parvarish qila boshlashibdi. Son Ir degan bola ham urug‘ni ekib, rosa parvarish qilibdi. Lekin bir oy o’tsa hamki, gultuvakka ekilgan urug‘ qilt etmasmish. “Bu qanaqasi bo‘ldi?” – debdi hayron bo‘lib bola, u axiri onasidan so‘rabdi:

– Nega men ekkан urug‘ unib chiqmayapti?

Onasi ham shundan tashvishlanib yurgan ekan:

– Tuprog‘ini yangilab ko‘r-chi, – debdi o‘g‘liga.

Son Ir gultuvakdagi tuproqni almashtiribdi. Bu safar ham urug‘ ko‘karmabdi.

Qirol gullarni ko‘radigan kun yetib kelibdi. Hamma bolalar yasanib-tusanib, tuvakda o‘zlari o‘stirgan gullarni ko‘tarib yo‘lga chiqishibdi. Ularning hammasi valiahd bo‘lish orzusida ekan. Negadir qirol gullarga qarab hamma bolalarning oldidan o‘tib ketaveribdi. Uning chehrasida shodlikning uchquni ham ko‘rinmabdi.

U bir uyning oldida bo‘sh tuvak ko‘tarib yig‘lab turgan bolani ko‘rib qolibdi. Bu Son Ir edi.

– Nima uchun sen bo‘sh tuvak ushlab turibsan? – deb so‘rabdi qirol undan.

Son Ir piq-piq yig'lab, kunlardan bir kuni birovning bog'idan egasiga bildirmasdan olma uzganini, shuning uchun bo'lsa kerak, qancha urinsa ham urug'ni undira olmaganini gapirib beribdi.

Bu gapni eshitgan qirol Son Irni ko'rsatib:

– Mana, mening pok vijdonli o'g'lim, – debdi.

Odamlar orasida g'ala-g'ovur boshlanibdi:

– Qirol nima uchun gultuvagi bo'sh bolani o'g'il qilib oldi?

Shunda qirol tushintiribdi:

– Ey xaloyiq, men bolalarga ularshgan gul urug'i qaynatilgan edi.

Shundan keyingina odamlar qirolning fikrini ma'qullashibdi. Rang-barang gullar ko'tarib turgan bolalarning yuzlari uyalganlaridan qip-qizarib ketibdi. Chunki ularning hammasi boshqa gul urug'i topib ekanlar-da.

Mavzuga oid maqollar:

*Yolg'on aytgan kishining,
Xatari bor ishining.*

Ikki chin so'z – bir yolg'onning yelimi,

Ikki yolg'on – bir yigitning o'limi.

EGRILIK

~ Men to‘g‘riligim tufayli to‘g‘ri yo‘lda yurib e‘zoz topdim. Hattoki osmonda uchayotgan qushlarni ham qulata olaman. Sen egrilicing bois aslo menga tenglas holmaysan!.. – dedi o‘q g‘ururlangancha kamonga.

~ Ey o‘q! – dedi kamon, – qosh kabi egriligung bo‘lma ganda sening qadring bo‘lmas edi. Egriligung bois e‘zoz topmaganingda bir cho‘p eding, xolos. To‘g‘rilik qomat tufayli emas, dilning sofligi sabab barpo bo‘ladi. Shu bois qomatingga mahliyo bo‘lavermasdan, dilingni to‘g‘rila!..

IKKI DO‘ST VA UALAR O‘G‘IRLAGAN BIR XALTA OLTIN

(rivoyat)

“O‘g‘ri-o‘g‘rini qorong‘ida topar” deganlaridek, o‘t-gan zamонlarning birida ikki do‘st, ikki hamroh bolgan ekan. Yetti yet begona insonlarni mehr-mu-

habbat, oqibat kabi tuyg'ular birlashtirsa, bu ikki do'stni bir tan-u bir jonga aylanishiga sabab bo'lgan narsa qalblaridagi qing'irlik, ochko'zlik, o'g'rilik – egrilik ekan.

Kecha-yu kunduzni, shodlig-u kulfatni birga ke-chiradigan ana o'sha do'stlar kunlarning birida bir qop oltinni qo'lga kiritishibdi. Mazkur boylikni halol, pokiza yo'l bilan emas, bir insonning haqiga xiyonat qilib, o'g'rilik, kissavurlik ortidan qo'lga kiritgani bois qo'rqib-pisib, boshqalarga sezdirib qo'ymaslik uchun toqqa chiqib ketibdilar. Oradan bir-ikki kun o'tgach yeguliklari tugabdi. Ular ovqat olib kelish uchun qur'a tashlabdilar. Biri shaharga borib ovqat olib kelishga, boshqasi esa oltinlarni qo'riqlashga kirishibdi.

Shahardan ovqat olib kelgani ketgan odam o'yabdi: "Zahar xarid qilay-da, ovqatga solay, keyin ham-rohimga uni ichiray. U ovqatni yeb, zaharlanib olsin. Bir xalta oltin o'zimga qolsin. Oltinlarni bir yerga ko'mib oz-ozdan foydalanay".

Oltinlarning oldida qolgan odam ham oltinlarning yagona sohibi bo'lishga qaror qilgach, fursatni qo'ldan bermay shunday fikr yuritibdi: "Anavi qoya orqasiga berkinib hamrohim kelishini kutaman. Kutilmagan-da zarba berib uni o'ldirsam, oltinlarning hammasi o'zimga qoladi":

Oltinlarning oldida qolgan odam hamrohi keli-shi bilan uni urib o'ldirdi. So'ngra o'zi o'tirib zaharli ovqatni yedi... Bir xalta oltin tog'-u tosh va hayvon-larga qoldi.

Mavzuga oid maqollar:

*Yulduz aslo oy bo'lmas,
O'g'rilikdan boy bo'lmas.*

Egri kaltakdan to'g'ri soya tushmas.

*To'g'rilik to'rga tortar,
O'g'rilik – go'rga.*

YALQOVLIK

Yalqovlik, erinchoqlik, ishyoqmaslik vaqt ni behuda sarflashga olib keladi. Inson fe'lidagi bu qusur haqida bobolarimiz nihoyatda ko'p qayg'urganlar. Xususan ular: "Bekor yurgandan ko'ra dushmanga tosh tashig'an afzal", deyishgan.

Alisher Navoiy bobomiz o'zlariga ustoz deb bilgan Farididdin Attor hazratlari bo'lsa:

*"Bo'lsa tanballik kishining peshasi,
Tekkay oyog'ina xorlik teshasi!" – deya ogohlanti-radi.*

YALQOV AKSI (Yapon xalq ertagi)

Qadim zamonda bir qishloqda Taro ismli yigit-cha yashagan ekan. U yalqovlarning yalqovi bo'lib, unga o'xshagan dangasani hali dunyoga ko'rmagan ekan. Shunchalik yalqovligi ustiga yana anqov ham ekan.

Taro ertalabdan ko‘chaga chiqib, har bir narsa – tom yopganlar bormi, bochka tuzatayotganlar bormi, ularning oldiga borib og‘zini ochib, anqayib turaverarkan, bordi-yu, it, mushuk ortidan kelib qolgudek bo‘lsa bormi, mushuk daraxtga chiqib qochib qolganiga qaramay, Taro daraxt tagida anqayib, it bilan mushuk qachon yarashib olisharkan, deb poylab o‘ti-raverarkan.

Kuz ham kelibdi. Taroning tengqurlari g‘alla o‘rimiga chiqib, ter to‘kib mehnat qila boshlashibdi. Faqat Taro beparvo qishloq kezib, daydib yuraveribdi.

Bir vaqt yo‘l chekkasida yotgan xumchani ko‘rib qolibdi.

– Oh-oh, ko‘proq sang‘isang kattaroq buyumga ega bo‘lasan, deganlari shu bo‘lsa kerak, – deb o‘ylabdi Taro. – Buning ustiga but-butun-a, biror joyi darz ketgani ham yo‘q. I-ye, uning ichida nimadir shiqillayaptimi? Rostdan ham ichiga dala sichqoni kirib qolanga o‘xshaydi.

Taro xumchaning ichiga qaragan ekan, nimaga ko‘zi tushibdi deng, u yerda na sichqon, na kaltakesak, na qurbaqa – aksincha, kichkina odamcha yashirinib yotganmish. Uning kallasi qoraqayin yong‘og‘idek, o‘zi oyoqda turgudek bo‘lsa, no‘xot qo‘zog‘idek kelarmish. Vo ajabo!

Taro hayron bo'lib og'iz ochib turib qolgan ekan, katta pashsha uning og'ziga ikki-uch bor kirib chiqibdi.

Xum ichidagi mitti odam to'satdan chirildoqqa o'xshab ingichka ovozda:

– Salom, Taro! Mana biz uchrashdik. Butun boshli qishloq odamlari ichidan bir sen menga yoqasan. O-o, boshqa yigitchalarni qanchalik yomon ko'rishimni bilsayding! Sen meni uyingga olib ket, birga yashaymiz, – deb iltimos qilibdi.

– Olib ketganim, bo'lsin. Bir oz sen bilan ko'ngil ochsam nima bo'libdi? – deb javob beribdi Taro.

U uygakelgandan so'ng xum ichidan mitti odamchani avaylab olib xonaning o'rtasiga o'tqazib qo'yibdi. Shu mahal mushuk xum egasining yoniga ya-qinlashib kela boshlabdi, Taro uni xonadan haydab chiqarib eshikni yopib qo'yibdi.

– Mitti odamcha, sen juda g'aroyibsang-da! Darhaqiqat, dunyodagi hamma pakanalarning pakanasan. Istanasang, bir oz o'ynaymiz-a? – taklif etibdi Taro.

U kun bo'yi mitti odam bilan o'ynabdi. Uni yog'och kosa ichiga o'tqazib qo'yib, bochkadagi suvda rosa suzdiribdi. Keyin aravacha yasab, unga sichqonni qo'shibdi. Sichqon aravachani ag'dargunicha yuguribdi, so'ng iniga qochib kirib ketibdi. Taro kechga-cha miriqib kulib o'ynabdi, oxiri yangi "o'yinchoq" dan

ham bezor bo'libdi. Biror narsani uzoq vaqt o'ynashga toqati yo'q ekan-da.

Taro ertasiga ertalab yana ko'cha changitgani chiqib ketibdi. U kun botarga yaqin mitti odamcha haqida eslab qolibdi. Uyiga qaytib kelib qarasaki, uyning o'rtasida oyoq-qo'lini cho'zgancha bir notanish odam yotgan mish...

Bu kim bo'ldi ekan? Taro chaqirilmagan mehmonni diqqat bilan ko'zdan kechira boshlabdi. Uni allaqayerda ko'rgandek bo'libdi. E, ha, bu axir Mitti odamcha-ku!

– Bu mo'jiza!.. Sen qanday qilib bir kunda shuncha o'sding? – so'rabdi undan Taro. – Kechagina sichqondan ham kichik eding, bugun bo'lsa mendan ham katta bo'lib ketibsan.

– Buning hammasi sening xizmatingdan, do'stim! Sening g'amxo'rлиging tufayli, – deb javob beribdi haligi odam. Men seni bekorga tanlaganim yo'q. Sen ko'proq ko'cha changitib daydib yuraver, men hali bundan ham o'sib ketaman.

Bu so'zlarni eshitgan Taro hayotida ilk bor: "Bu so'zlarning ma'nosi nima ekan?" deb o'ylanib qolibdi.

Xum egasi endi o'zini mehmon emas, mezbondek tuta boshlabdi. Unga hali uni olib kel, hali buni olib kel, deb buyuradigan, talab qiladigan bo'libdi.

Taro zo'rg'a tong ottiribdi, kun yorishishi bilan uydan chiqib ketibdi. To'g'risi, mehmondan bezor

bo'lganidan uydan qochib ketibdi. U kuni bo'yi qishloq-da sang'ib yuribdi.

Kech kirganda uyga qaytib kelib eshikni olibdi-yu, turgan joyida dong qotib qolibdi. Uyga kirib bo'lmas emish. Mehmon shunchalik o'sib ketibdiki, uycha bir o'ziga kichiklik qilib qolibdi.

– Kallavaramlar, shunaqayam kichkina uy qurasiz-larmi, – deb to'ng'illarmish xum egasi. – Aylanishga joy yo'q. O'choqniyam uyni o'rtasidan quradimi, oyoq tegib ketib, olovda kuyasan odam.

O'sha kuni Taro tashqarida, ochiq havoda uxbabdi. Tong etishi bilan hovlidan chiqib ketibdi. U yo'lda quduq yonida yoqalashishda qaysining bolasi aybdor ekanini bahslashib turgan qo'shnilariga ko'zi tushibdi. Taro ularning babsiga qo'shilmasdan o'tib keta olmabdi! Taro kun botganda uyga qaytib borsa, eshik va derazadan yo'g'on xodasimon narsalar chiqib tur-ganmis. Bu nima bo'ldi? U yaqinroq borib qaragan ekan, ular mehmonning qo'l va oyog'i bo'lib chiqibdi. Xum egasi ulkan odamga aylanib ketgan ekan. Sal bo'lmasa uy tomini qo'porib chiqay debdi. Taro qanday qilib bu balodan qutulish yo'lini qidirib ertalab-gacha o'ylab, o'yining tagiga yetolmabdi.

Ertasiga ertalab qo'shnisi eshik qoqibdi:

– O'g'lim betob yotibdi. Bir o'zim daladagi hosilni yig'ib olishga qurbim yetmaydi, men qariyaga qarashib yubor, – deb iltimos qilibdi.

Taroning ishga hech xohishi yo‘q ekan, lekin cholning iltimosini rad etishga uyalibdi. O‘roqni qo‘liga olib, qariyaga yordam bergani ketibdi. Kech kirganda qo‘snnisi Taroga astoydil minnatdorchilik bildiribdi.

Taroning nihoyatda ko‘ngli ko‘tarilibdi. Axir u hayotida birinchi marta mehnat qilib, birovning og‘irini yengil qilgan edi-da!.. Uyga qaytib kelib qarasa, chaqirilmagan mehmonning eshik va derazalardan chiqib turgan qo‘l va oyoqlari ko‘rinmasmish. Taro ichkariga kirgan ekan, uyning o‘rtasida ayiq kabi ag‘darilib, g‘ingshib yotgan mehmonni ko‘ribdi. U eshikni mahkamlab yopibdi-da, hovlida yotibdi.

Taro ertasiga ertalab yana qo‘snnisiga qarashgani boribdi. Uyiga kun botganda kirib kelibdi, qarasa mehmon ikki baravar kichrayib ketibdi. Uyning bir burchagida xunob bo‘lib o‘tirganmish. Uy yana qadimgiday bahavo, keng bo‘lib, ishdan keyin bemalol oyoqni cho‘zib, choy ichadigan holga kelib qolibdi.

Mehmon bo‘lsa:

– Taro, men seni, shu darajaga yetasan deb o‘ylamagandim! Sen yalqovlarning yalqovi, hatto bo shingga qo‘ngan pashshani haydashga erinadigan odam eding-ku?! Nimalar qilyapsan?.. Yana ikki kun yalqovlanib yurganingda, naq bulutga yetgudek o‘sib ketardim. Ayt, nega kun bo‘yi o‘roq o‘rding? Meni yana qayta lahadga tiqmoqchimisan?

“E-ye, gap bu yoqda ekan-da! – fahmlab qolibdi Taro. – Ertaga shundoq ishlayki, hech kim menga yetib ololmasin”.

Ertasiga xum egasi o‘zining asl holiga qaytib, no‘xat qo‘zog‘iga teng bo‘lib qolibdi. U:

– Taro, sendan iltimos qilaman, – deb yalinishga tushibdi yig‘lamsirab. – Meni qayta xum ichiga joylab, yo‘l chetiga olib chiqib qo‘y. Men o‘zimga boshqa dangasaroq xo‘jayin qidirib ko‘raman, – debdi.

Taro uning iltimosini bajo keltiribdi.

Qishloqdagi keksalarning so‘ziga qaraganda xum egasi yalqovning aksi ekan.

Keyin uni kim topib olganini bilmaymiz.

Kim bilsin, balki xumdagi yalqov aksi hali ham yo‘l yoqasida yangi xo‘jayinini kutib yotgandir.

Mavzuga oid maqollar:

Baxt yalqovga begona.

Yalqov – o‘ziga yov.

*Bekorchidan el bezor,
So‘zidan ko‘ngil ozar.*

TIRISHQOQLIK

“To talab oyog‘i ranj-u mehnat tikoni bilan majruh bo‘imas ekan, visol qo‘li maqsad gulining yoqasiga yetolmaydi. Kishida kuchli intilish bo‘maguncha muro-dining oftobi mashriq umidi ufqidan nur sochib chiq-maydi. Chunki gul terish uchun tikon zaharini chekish lozim. Demak, maqsadga yetishmoq uchun tinimsiz sa‘y-u harakat qilmoq kerak.”

Xoja Samandar Termiziy

Bir kishi donodan so‘radi:

- O‘limga nima yaqin-u, nima uzoq?*
- Uyqu o‘limga qancha yaqin bo‘lsa, harakat o‘lim-dan shunchalik uzoqdir, – deb javob berdi u.*

TIRISHQOQ YUN SU (Koreys xalq ertagi)

Bir vaqtlar Fuchjouga yaqin joyda Yun Su degan kichik bir bola yashagan ekan. Otasi o‘lib, u onasi bilan yolg‘iz qolibdi. Ona-bola g‘oyat kambag‘al bo‘lib,

qoqay desa qoziqlari, osay desa xurmachalari ham yo‘q ekan. Ba’zan bir siqim guruch ham topolmay qolishar ekan. Yun Suning o‘qishga boradigan vaqt kelibdi, ammo uning yozish uchun qog‘ozi ham, siyo-hi ham, mo‘yqalami ham yo‘q ekan. Shunga qaramay, Yun Su “o‘qiymان” deb, qat’iy qaror qilibdi. So‘ngra u muhtojlikdan qutulish yo‘lini o‘ylay boshlabdi. Ertasi-ga ertalab boy qo‘snihsining oldiga kelib:

– Xizmatkor qidirayapsiz deb eshitdim, meni yollay qoling! To‘g‘ri, men juda kichikman, biroq ishlaganim uchun ko‘p haq so‘ramayman, ba’zi-ba’zida o‘g‘illarin-gizning qanday dars tayyorlashlariga qarashga rux-sat bersangiz bas, menga shuning o‘zi yetadi, – debdi.

Boy tekin ishchi o‘z oyog‘i bilan keldi, deb xursand bo‘libdi-da, jon deb uning taklifiga ko‘nibdi. Yun Su boyning uyida ertadan kechgacha mehnat qilarkan. Ko‘plab jirkanch va og‘ir ishlarni unga buyurishar-kan. Lekin Yun Su ba’zi-ba’zida xo‘jayinning bolalari o‘qiydigan kitobga ko‘z tashlash imkoniyatiga ega bo‘libdi. Ba’zan bir darsni boshdan-oyoq tinglash-ga imkoniyat tug‘ilarkan: o‘qituvchi kelishi bilanoq Yun Su burchakka yashirinib olarkan-da, darslar-ni tinglab o‘tirarkan. Shunday qilib u o‘qishni o‘rga-na boshlabdi. Bir yildan so‘ng o‘zi mustaqil o‘qiy ola-digan bo‘libdi. Biroq shunisi chatoq ekanki, hali u yozishni bilmas ekan. Yozadigan qog‘ozi yo‘q ekan-da. Endi nima qilsam ekan, deb o‘ylabdi Yun Su. Ke-

yin buning ham yo'lini topibdi. Yun Su onasi bilan dengizning shunday qirg'og'idagi kichkina uychada yashar ekan. To'lqinlar kun bo'yи mayin dengiz qumlarini tekislab turar ekan. Yun Su uzun tayoqcha olib, dengiz bo'yiga kelibdi. Qumga bir so'z yozibdi. To'lqin kelib yozgan so'zini yuvib ketibdi. U qaytadan yozibdi, yana bir to'lqin kelib, yozuvni yuvib ketibdi. Shu tariqa u qog'oz va qalamsiz tinmay yozishni mashq qilibdi. Lekin endi unga kitob kerak bo'la boshlabdi. Kunlarning birida Yun Su xo'jayinning oldiga kelibdi-da:

– Shu vaqtgacha men sizga haq olmay ishlab berdim, endi haq talab qilaman. Biroq, siz kitoblariningizni o'qishga ruxsat bersangiz, men yana bir yil shunday ishlashga roziman, – debdi.

Bunday tekin xizmatkorni qo'ldan chiqarishga xo'jayinning ko'zi qiymabdi, shuning uchun ruxsat beribdi. Shunday qilib Yun Su kitobli ham bo'lib olibdi.

Qish yaqinlashib qolibdi. Kunlar qisqaribdi. Yun Su tungacha ishlarkan, faqat kechasigina o'qishga to'g'ri kelarkan. U shunchalik qashshoq ekanki, hatto chiroqqa yog' sotib olishga ham qurbi yetmas ekan. Biroq bu hol Yun Suning shahdini qaytarolmabdi. U oy chiqib, nur taratgan vaqtarda, oydinda o'qibdi va yozibdi, tirishqoq Yun Su oy chiqmagan vaqtarda o'tzordan yaltiroq qurtlar terib kelib, bambuk tayoqchasiga yopishtiribdi-da, kechalari shu yaltiroq qurt-

lardan taralayotgan xira yorug'likda o'qishini davom ettiribdi.

Oradan ko'p yillar o'tibdi. Yun Su maqsadiga yetib, ulug' olim bo'libdi. Odamlar Yun Su degan kambag'al bolaning tirishqoqligini hali-hali eslab yurishadi.

ARSLONDEK MEHNAT QIL!

(rivoyat)

Bir zamonlar o'rmonda o'tin kesib yurgan dehqon holsizlangan tulkini ko'rib qoladi. U bechoraning na qo'lida, na oyog'ida majoli bor edi. Na yer, na ichardi. Dehqon: "Bu endi qanday kun ko'radi?", – deb ajablanib turganida, u yerdan bir jayronni tutishga urinayotgan arslon o'tib qoladi. Arslon o'ljasini ushlab, bir daraxt yoniga olib borib yeysi-da, to'ygach, u yerdan uzoqlashadi. Ana shunda tulki yirtqichdan qolgan sarqitlar bilan qornini to'yg'izadi. Bo'lib o'tgan voqeani ko'rgan o'tinch'i:

– Modomiki, tulkining rizqi oyog'i ostigacha kelgan ekan, mening mehnat qilishimga aslo hojat yo'q? Men ham bir chekkada o'tirib, nasibamni kutaman, – deya qaror qildi.

Keyin o'tin kesishni ham tashlab, daraxt soyasida joylashib, rizqini kuta boshlaydi. Oradan ancha vaqt o'tadi, ammo hech narsa kelmaydi. Ochlikdan holsiz-

lanib uxlab qoladi. Tushida oq soqolli bir darveshni ko'radi. U:

– Ey tanbal odam! O'zingni yarador, harakatsiz tulkining o'rniga qo'yma!.. Qani, tur, bor, arslondek mehnat qil! Astoydil tirishib ishlaginki, arslondek senda ham ortiqcha narsa qolsin! Ojiz tulkidek sarqit yema. Arslondek baquvvat ekansan, chorasiz tulki kabi bo'lganingdan it kabi bo'lganing yaxshiroq, – deydi.

Dehqon uyqusidan uyg'onar-uyg'onmas qilgan xatosini tushunib yetadi va dangasalikni qo'yib, bor kuchi bilan ishlashga kirishadi. Mehnatning zavqini tuyib, rizqiga baraka va maza inib, tirikchiligidan ortganini yo'qsillarga ulashib, baxt-u saodatda hayot kechiradi.

Mavzuga oid maqollar:

*Daraxt yaprog'i bilan ko'r kam,
Odam – mehnati bilan.*

Bemehnatga hikmat ham yo'q.

*Tindim tunda, tinmadim kunduzi,
Bo'ldi qo'y telpagim qunduzi.*

QO'RQOQLIK

“Kishidagi eng yomon illat o’ta baxillik va qo’rqaqligidir”, deyiladi hadisi sharifda.

Darvoqe, behuda, ko’r-ko’rona qo’rquv maqsadlar yo’lidagi ulkan g’ovdir. Bu haqda Samandar Termiziy aytadi: “Burgutga shohlar qo’lidan joy tayin etilganining boisi shuki, u o’zini boyo‘g’li kabi uy ichiga olib o’tirmaydi. Boyo‘g’lining devorlar orasida qolib ketganining boisi esa xarobalardan umid uzib chiqa olmasligidir”.

2

TUYA, FIL VA OLMAXON (ertak)

Bir kuni tuya olmaxonning oldiga boribdi-da:

– Men ekin ekmoqchiman, menga sherik kerak, – debdi.

– Yaxshi. Men senga sherik topib beraman. U juda bahaybat va kuchli hayvon, – deb javob beribdi olmaxon.

Tuya dalaga borib, yerni xas-cho‘plardan tozalab, uni haydashga tayyorlabdi.

Oradan sal vaqt o'tgach, fil ham olmaxonning oldiga kelibdi-da, unga:

– Men ekin ekmoqchiman, menga sherik kerak, – debdi.

Olmaxon unga ham:

– Yaxshi. Men senga sherik topib beraman. U juda bahaybat va kuchli hayvon, – debdi.

Ertasiga yomg'ir yog'ib o'tgach, fil dalaga yo'l olibdi va yer haydab, urug' sepibdi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach, tuya dalaga boribdi-da, unib chiqqan ekinlar ni o'toq qilibdi. Keyin fil kelib ikkinchi o'toqni amalga oshiribdi. Oxiri tuya kelib qarasa, ekinlar pishib qolibdi. Tuya o'rib, fil ularni bog'labdi.

Lekin shu o'tgan vaqt ichida fil bilan tuya bir-birlari bilan sira to'qnash kelmabdilar.

Bir kuni tuya olmaxonni uchratib, undan:


– Men yer haydadim-u, lekin sherigimni ko'rganim yo'q. Qani u? – deb so'rabdi.

– Hozir keladi, lekin u g'allani saqlash uchun o'ra qazib qo'yishingizni buyurdi, – deb javob beribdi olmaxon.

Tuya fil g'allani tashib kelgunga qadar katta bir o'ra qazibdi

Fil g'allani olib kelgach, olmaxonni ko'ribdi-da:

– Men yerni boplab haydadim, lekin sherigimni ko'rganim yo'q, qayerda uning o'zi? – deb so'rabdi.



– Mana – u. O'rada. Lekin g'allani olib kelish uchun uzoq qolib ketganingga sendan qattiq ranjidi, u hozir chiqadi-da, sening ta'ziringni beradi, – deya pichir-labdi olmaxon.

Tuyaning bo'lsa, o'raning o'g'ziga allaqanday bad-jahl, bahaybat hayvon kelganini ko'rib, yuragi chiqib ketayozibdi. O'ra atrofidan shuvillab tuproqlar tusha boshlabdi.

Shunda fil: "Hozir u yerdan qandaydir qo'rqinchli, bahaybat maxluq chiqib qolsa kerak", – deb o'yabdi. Uni vahima bosib, g'allani tashlabdi-yu, orqa-oldiga qaramay, o'rmonga ura qochibdi.

Uning oyoq tovushini eshitib tuya ham o'radan chiqibdi-yu, juftakni rostlab qolibdi. Shunday qilib, tuya bilan fil qo'rqqanlaridan qochib ketishibdi. Oqibatda o'zlari yetishtirgan hosildan quruq qolishibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Qo'rqeding – tutilding,
Qo'rqedading – qutilding.*

*Qo'rqoqning ko'zi katta,
Ahmoqning so'zi.*



XASISLIK

*Mol-dunyosi bo'la turib boshqalarga bermaslikka,
o'rniga sarflamaslikka intiladigan kishi – xasisdir.
Xalqimiz bundaylarni ziqna, qizg'anchiq ham deydi.*

*"Baxil ehsondan, xasis mehmondan qochadi". Chun-
ki xasisning nafsi aqliga emas, aqli nafsiga xizmat qila-
di. "Nafs tuyaqush misolidir, – deydi Farididdin Attor.
– Tuyaqush – qush bo'lib uchmaydi, tuya bo'lib yuk
ko'tarmaydi. "Uch" desang, "tuyaman" deydi, "yuk
ko'tar", desang, "qushman-ku!" deya xarxasha qiladi.*

BOYLIK AQL BILAN SARFLANMASA...

(rivoyat)

Qadim zamonda bir xasis odam bo'lgan ekan. U bir kuni hayoti davomida to'plagan barcha molini sotib, oltin tangalarini qishloq tashqarisidagi bir daraxt ostiga olib borib ko'mibdi.

Uyiga qaytgach ko‘mib kelgan oltinlarini o‘ylab huzur-halovati, ishtahasi yo‘qolibdi, kechalari ko‘zidan uyqu qochibdi. Kecha-u kunduz xayoli ko‘mib kelgan oltinlarida bo‘libdi. Ularni birov o‘g‘irlab ketishidan qo‘rqib, oxiri o‘sha daraxt tagiga borib, oltinlarini qayta-qayta sanab keladigan odat chiqaribdi.

Uning har kuni bir joyga borib-kelishini kuzatgan dono qariya hamqishlog‘i ortidan daraxt tagigacha boribdi. Uning qilayotgan ishini ko‘rib:

– Bu xasis devonaning aqlini kiritib qoyay, – deya oltinlarning o‘rniga tosh solib qo‘yibdi.

Xasis bundan bexabar xotirjam uyiga qaytibdi. Er-tasi kuni oltinlarini sanagani borganida ne ko‘z bilan ko‘rsinki, ko‘mib qo‘ygan oltinlari o‘rniga tashlab ketilgan toshlarni topibdi.

Uyiga xafa holatda parishonxotir qaytayotgan xassisni ko‘rgan donishmand hamqishlog‘i:

– Ha, hamqishloq, sizga nima bo‘ldi? – deya so‘rabdi.

– Ey, nimasini aytay? Daraxt tagiga ko‘mib qo‘ygan oltinlarimni o‘g‘irlab ketishibdi.

– Shunaqa deng, axir, ularni ishlatmaganingizdan keyin ko‘mganiningiz toshmi yoki oltinmi, sizga nima farqi bor? Ularni men toshga almashtirib qo‘ygan edim. Aql bilan sarflanmagan boylikning keraksiz toshdan farqi yo‘q, – debdi donishmand.

Xasis odam bu voqeadan o‘ziga kerakli xulosa
chiqaribdi va boyligining bir qismini kambag‘allarga
tarqatibdi.

Mavzuga oid maqollar:

Cho‘loqning sayri yo‘q,

Xasisning xayri.

Xasisdan tuxum olsang, sarig‘i chiqmas.

Saxiy topsa o‘rtada,

Xasis topsa xaltada.

TAKABBURLIK

“Agar olam yorusa san sababdin, Quyoshdek titra doim xavfi Rabbdin”, deydi yurtimizda yashab ijod qilgan kamol sohiblaridan biri So‘fi Olloyor kamtarlikka undab. Kamtarlik va tavozening ziddi bo‘lgan takabburlik, manmanlik sohiblari o‘zlarini boshqalar dan ortiq deb biladi, xulqidagi qusur va kamchiliklarni ko‘rmaydi, ko‘rsa ham o‘zini ko‘rmaganga olib, aybiga iqror bo‘lmaydi. Shunday ekan, insoniylikning zavoli bo‘lgan bu illatdan yiroq bo‘!!..

TAKABBUR BOY (hikoyat)

Takabbur boy o‘zidan yordam so‘ragan faqirning yuziga eshigini yopdi. Bechora kambag‘al bir burchakka biqinib o‘tirib qoldi. Tashvish chekib, faryod ura boshladи. Bir ko‘r undan qayg‘uli holatining sababini so‘radi. G‘arib boshidan o‘tgan voqealarni yig‘lay-yig‘lay aytib berdi. Ko‘r esa unga shunday dedi:

– Xafa bo'lma. Yaratgan seni xor qilmaydi. Bu kecha mening mehmonim bo'l.

Bu tasallidan ko'ngli xotirjam tortgan faqir ko'rning uyida qornini to'ydirdi. Kayfiyati yaxshilanib:

– Alloh sening ko'zlarining ochsin, – deya duo qildi.

Tun yarmida ko'rning ko'zlaridan bir necha tomchi yosh oqdi. Ertalab uyg'onganida, ko'zlar ko'ra boshladi. Xabar shiddat bilan butun shaharga tarqaldi. Hamma qatori qalbi qora boy ham bundan darak topdi. Ko'rning oldiga borib:

– Bu hodisa qanday sodir bo'ldi? Dunyongni yoritgan bu nurni senga kim tortiq qildi? – deya so'radi.

Ko'zi ochilgan odam uning savoliga shunday javob berdi:

– Ey zolim, takabbur inson! Sen kaltafahm, aqli past kishi ekansan. Ko'zlarimning berk "eshig"ini sen ostonangni yuziga qarata yopgan o'sha faqir ochdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Yo'q narsa bor bo'lar, kamtar bo'lsang,
Bor narsa yo'q bo'lar, manman bo'lsang.*

*Maqtangan pand yeydi,
Kamtarin qand yeydi.*

CHAQIMCHILIK



“U yerdan bu yerga gap tashuvchilar elning gunohini o‘z bo‘yniga oluvchilardir. Chaqimchilik hatto chin gap bo‘lsa ham ko‘ngilsizdir, yolg‘on bo‘lsa yanda nafratlidir. So‘z yetkazuvchining xoh kattasi, xoh kichigini – do‘zax o‘tining tutanturug‘i bil.”

*Alisher Navoiy,
“Mahbub ul-qulub”*

CHAQIMCHINING OQIBATI (ertak)

Qoplonning to‘rtta bolasi bor edi. Ularni sog‘-omon katta qilish juda mashaqqatli. Bolalarni parvarishlab, himoya qilishdan tashqari, har kuni yemak kelтирib, boqish zarur edi.

Jasur, dovyurak va charchamas qoplon bugun ham ovga chiqib, kichik bir o‘ljani qo‘lga kiritdi. Buni ko‘rgan chiyabo‘ri qoplonga sugatoylik qilib, o‘ljasidan berishni so‘radi.



– Bugungi o'ljam juda kichik, bolalarim och, ularning o'ziga zo'rg'a yetadi, – dedi qoplon.

G'ayirligi tutgan chiyabo'ri quzg'unlarga borib qoplonning ovi baroridan kelganini chaqib berdi. Buning evaziga quzg'unlar unga bir parcha suyak va'da qildilar.

Qoplon bolalari yashiringan g'orga yaqin qolganda, unga quzg'unlar galasi hujum qilishdi. O'ljasidan ayrilish ochiqqan qoplonchalarining nobud bo'lishiga olib kelishi mumkin edi. Buni yaxshi tushungan ona qoplon jon-jahdi bilan kurashib, mardonavor o'ljasini tishlab g'origa qaytdi. O'ljani tortib ololmagan quzg'unlar g'azablandilar va uzoq o'ylab o'tirmay, chaqimchi chiyabo'rining o'ziga hamla qildilar. Bir zumda chaqimchi chiyabo'ridan parcha-parcha suyaklargina qoldi.

Mavzuga oid maqollar:

*Chaqimchi – chipor ilon,
Zahri ilondan yomon.*

*Chaqimchiga chorak o'q,
Yana chaqsa, u ham yo'q.*

G'ITYBATCHILIK

“G’iybat – birodaringni, u yomon ko’rgan sifat bilan tilga olishingdir. Aytilgan narsa (nazarda tuti layotgan kishida) mavjud bo’lsa g’iybat, unda bo’lmasa, bo’htondir”, deyiladi hadisi sharifda. G’iybat ko’z qisish, masxara qilib kulish, ishora, kinoya, harakat, yozish kabilar bilan ham amalga oshadi. O’tganlarni g’iybat qilishning gunohi qattiqroqdir. Tirik insondan uzr so’rab, roziligini olish mumkin, ammo vafot etganning roziligini olish mahol.

Farididdin Attorning quyidagi satrini o’qisangiz g’iybatning naqadar tuban illat ekanligiga yana bir bor amin bo’lasiz:

*“Solma til g’iybat sari, ey hushmand,
Tushmasun to qo’l oyog’ing uzra band.”*

Ya’ni: Ey hushyor odam, g’iybatga berilma, g’iybat tufayli senga kishan solinmasin. Tilini g’iybatdan saqlagan odamgina o’zini ofatdan saqlaydi. G’iybatning ziyoni, avvalo, g’iybat qiluvchining o’ziga bo’ladi. U g’iybat orqali o’ziga kishan soladi.

SOCHILGAN PATLAR (rivoyat)

Qadim zamonda bir ayol qo'shnisi haqida birovdan eshitgan gapini tarqatib yuboribdi. Bundan hamma xabar topib, o'sha qo'shnini yomon ko'rib qolganida esa, tarqatilgan xabar yolg'on ekan oydinlashibdi. Xabarni tarqatgan ayol qo'shnisidan kechirim so'rabi va aybini yuvish uchun maslahat so'rab shahar qozisining oldiga boribdi.

"Men qo'shnim haqida bir xabar eshitib, hamma ga ovoza qilib yuborgan edim. Ammo bu xabar yolg'on bo'lib chiqdi. Endi nima qilib aybimni yuvsam bo'ladi?" deb so'rabi haligi ayol shahar qozisidan.

Qozi unga shunday debdi:

– Bozorga borgin-da, tovuq sotib ol. Keyin uni o'ldirib, menga olib kel. Faqt yo'l davomida tovuqning patlarini har tomonga sochib kelish esingdan chiqmasin!

Ayol uning maslahatiga ajablangan bo'lsa-da, bozorga jo'nabdi va tovuq sotib olib o'ldiribdi va qozi aytgandek yo'l bo'yi patlarini sochib, qaytib kelidi: "Mana, siz aytgan tovuq. Patlarini esa buyurganingizdek yo'l bo'yi har tomonga sochib keldim".

Qozi tovuqni olib qolibdi va ertasi kuni kelishini buyuribdi.

Ertasi kuni ayol qozining oldiga kelganida, qozi unga yana bir ish buyuribdi:

– Endi, yana bozorga borgin-da, kechagi yo'ldan qaytib, tovuqning hamma patlarini yig'ib kel!

Ayol bozorga jo'nabdi. Ammo yo'lda patlarni uchratmabdi. Qaytishda ham diqqat bilan atrofni ko'zdan kechiribdi, ammo ikki-uchta patni aytmasa, qolganlari g'oyib bo'lganini ko'ribdi. Bir necha fursatda bosib o'tadigan masofani soatlab aylanibdi va qozining oldiga uch dona pat ko'tarib qaytib kelibdi.

– Ko'rdingmi? – debди qozi. – Ularni sochib yuborish oson, ammo hammasini yig'ib olish imkonsiz. G'iybat gap hafta xuddi shunga o'xshaydi. G'iybatni tarqatish oson, ammo tarqatib yuborganingdan keyin bu xatoni aslo tuzata olmaysan!..

Mavzuga oid maqollar:

G'iybat yaqinni yot qilar,

Totuvni – araz.

G'iybatchining dili kir,
O'g'rilarning tili bir.

QANOATLILIK

“Qanoatli darveshning qattiq noni tamagir shohning noz-ne’mat to‘la dasturxonidan yaxshiroqdir. Qanoatga odatlangan faqirning yovg‘on umochi¹ – olg‘ir boyning novvot-u holvasidan totliroqdir.”

Alisher Navoiy,
“Mahbub ul-qulub”

“Ozga qanoat qilganning ilm va hunarga bo‘lgan intilishida dangasalik va hafsalasizlik yuzaga kelmaydi, oshqozoni ovqatni hazm qilishdan ojizlashmaydi, sezgi a‘zolarining sezuvchanligi buzilmaydi.”

“Maxzan ul-ulum”

¹ Yovg‘on umoch – go‘shtsiz, yo‘gsiz xamir solib pishirilgan suyuq ovqat.

QANOATNING FOYDASI

(rivoyat)

Kobul shahrida yashovchi ikki kishi kun kechirishga qiynalib qolishdi. Chorasizlikdan qayoqqa bosh urishni bilmay, sulton Mahmud G'aznaviyidan yordam so'rash maqsadida G'azna shahriga safar qildilar. Yo'lda ularga bir odam hamroh bo'ldi. Bu odam juda sabrli bo'lib, mehnat bilan kun kechirar, topganiga qanoat qilib yashardi. Ikkovlon unga G'aznaga qay maqsad bilan ketayotganliklarini bildirib, undan ham safarining sababini so'radilar. Qanoatli kishi ularga:

— Men duradgorman. Halol kasbim ortidan topganimga qanoat qilib yashayman, hech kimdan bিror narsa tama qilmayman. Sultonning in'om-ehsoni menga kerak emas. Shaharni tomosha qilish maqsadida safarga chiqdim, — dedi.

Ular G'azna shahriga yetib kelgach, ikki yo'ldosh sulton huzuriga yo'lga tushdi, ammo qanoatli kishi saroyga borishni istamadi. Ikkovlon sulton huzuriga kirib, unga muddaolarini bildirishdi. O'z o'rnida boshidan kechirganlarini ham bayon qilib, qanoatli duradgorning saroyga kelmaganligini ham ma'lum qilishdi. Sulton odam yuborib uchinchi kishini ham

huzuriga olib keltirdi. So'ngra farovon hayotni orzu qilgan ikki yo'ldoshdan istaklarini so'radi. Ulardan biri sultondan bir xalta oltin in'om etishini o'tindi. Ikkinchisi hali uylanmaganini aytib, saroydag'i kanizaklardan biriga uylantirib qo'yishini so'radi. Sulton ularning tilaklarini qabul qilgach, qanoatli kishiga yuzlandi:

- Nega mening huzurimga kelishni istamading?
- Men o'zimning halol mehnatim evaziga kun kechirishni istayman. Sizning in'om-ehsoningizga ehtiyojim yo'q...

Sulton Mahmud unga tuhfalar berishni istadi, biroq qanoat sohibi ularni ra'd etdi.

Ular sultonning ijozati bilan o'z vatanlariga qaytish uchun yo'lga chiqdilar. Shahardan chiqib, bir oz yurganlaridan so'ng oltin egasi charchab qoldi. U qopni qanoatli kishiga topshirib, undan bir oz joygacha qopni ko'tarib borishini o'tindi.

Tuhfalari ra'd etilgan Sulton Mahmud g'azab otiga minib, bir xizmatchisiga buyurdi:

- Qopi va cho'risi bo'lмаган kishini o'ldirib, boshini keltir!

Xizmatkor qop egasini o'ldirib, boshini keltirdi.

Sulton oltin so'ragan odamni tanib, xizmatkorga uqtirdi:

– Qopi va cho‘risi bo‘lmagan kishini o‘ldirib, boshini keltir!

O‘sha vaqtda sulton cho‘risiga uylangan kishi xotinini qanoat sohibi oldida qoldirib, o‘zi zarurat yuzasidan nariroqqa ketgan edi. Xizmatkor borib uni o‘ldirdi va boshini Mahmud G‘aznaviyga keltirdi. Sulton hayron bo‘lib:

– Qopi va cho‘risi bor kishini o‘ldirmay, tirikligicha huzurimga olib kel!

Xizmatkor sultonning amrini bajo keltirdi.

Sulton qanoat sohibiga yuzlanarkan tabassum bilan:

– Hamrohlaringizga nima bo‘ldi? – deb so‘radi.

– Siz kimga oltin va cho‘ri in’om etgan bo‘lsangiz, ularning jonlarini ham o‘zingiz oldingiz. Men sizdan hech narsa tilamaganim uchun jonim omon qoldi, – deb javob berdi bosiqlik bilan.

Sulton bu so‘zlardan qattiq ta’sirlanib: “Mendan biron narsa so‘ra”, deb undan iltimos qildi.

Qanoatli kishi aytdi:

– Avvalo, qopdagi oltinlarga ko‘proq oltin qo‘shib, dunyodan o‘tgan ikki hamrohimning oilalariga yuboring. Ularni rozi qilib, gunohingizdan o‘tishlari ni so‘rang. Ig‘vogarlarning so‘ziga kirib, odamlarni o‘limga buyurishdan voz keching,adolatni o‘zingizga odat deb biling. Ruxsat bersangiz, xotinim va bo-

la-chaqamni shahringizga keltirib, o‘z kasbim bilan mashhg‘ul bo‘lsam.

Sulton Mahmud uning tilagini qabul qilib, gunohlarini afv etishini o‘tindi. Davlat ishlarida maslahatgo‘y bo‘lishga ko‘ndirib, uzoq yillar davomida qanoat sohibining suhbatlaridan bahramand bo‘ldi.

Mavzuga oid maqollar:

Toqat qilsang, tog‘ egilar,

Sabr qilsang, bog‘ egilar.

Qanoat qilsang, qorning to‘yar,

Beqanoat otini so‘yar.


DONOLIK

Dono, biluvchi, bilimdon, donishmand so‘zлari bir ma’noni hosil qilib, insonlar orasidagi noyob xislatlar- dan sanaladi.

Bir kuni hakimdan so‘rashdi: “Botirlik yaxshimi yoki donolikmi?” U: “Botirlik tig‘ bo‘lsa, aql-u tad- bir qo‘ldir. Agar ularga biror yumush topshiriladigan bo‘lsa, qo‘l tig‘siz ham o‘sha yumushni bajara oladi, ammo tig‘ qo‘lsiz biror ishni amalga oshirishi muam- mo!” deb javob berdi.

UCHTA OLTIN QO‘G‘IRCHOQ

(Hind xalq ertagi)

Rivoyat qilishlaricha, bir podshoh bo‘lgan ekan. U qo‘shni sultanat fuqarolarining zehnini bilmoxchi bo‘libdi va sovg‘a tariqasida o‘sha mamlakat sultoniga uchta oltin qo‘g‘irchoq yuboribdi. Hamma qo‘g‘ir-

choqlarning tashqi ko‘rinishi, bo‘y-basti va og‘irligi bir-biridan hech farq qilmas ekan. Lekin podshoh, bu qo‘g‘irchoqlar bir xil bo‘lsa ham, ularning narxi har xil, biri arzon, ikkinchisi qimmat, uchinchisi undan ham qimmatroq, shuni hal qilib berishsa, deb tayinlabdi.

Sovg‘adan qo‘shni mamlakat sultonining boshi osmonga yetibdi va saroy ahlini yig‘ib, qo‘g‘irchoqlarning biri ikkinchisidan nimasi bilan farq qilishini aniqlab beringlar, deb buyuribdi. Saroy ahli uchala qo‘g‘irchoqni bir-bir qo‘lga olib ko‘rib chiqibi-yu, ularda hech qanday farq yo‘q, degan qarorga kelibdi.

Arzimagan aybi uchun zindonga tashlangan bir yosh kambag‘al yigit bu xabarni eshitib, qo‘g‘irchoqlarni ko‘rmoqchi ekanligini sultonga yetkazishni iltimos qilibdi. “Agarda haq bo‘lib chiqsam, meni zindondan ozod qilsalar bo‘lgani”, – debdi u.

Sulton yigitni saroyga olib kelishni buyuribdi. Qo‘g‘irchoqlarni olib kelib, uning oldiga qo‘yishibdi.

Yigitcha qo‘g‘irchoqlarni diqqat bilan ko‘zdan kechiribdi va uchalasining ham qulog‘i ichida teshikchalar borligini payqabdi.

Shunda u bir bug‘doy poyasini olibdi-da, qo‘g‘irchoqlardan birining qulog‘iga tiqibdi, poyaning

uchi uning og‘zidan chiqibdi. So‘ng poyani ikkinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga tiqqan ekan, poyaning uchi narigi qulog‘idan chiqibdi. Poyani uchinchi qo‘g‘irchoqning qulog‘iga tiqqan ekan, poya uning qorniga tushib ketibdi.

Shunda yigit sultonga qarab, odob bilan debdi:

– Hazrati oliylari, bu qo‘g‘irchoqlarda insonlarga xos odatlar mavjuddir. Mana bu birinchi qo‘g‘irchoq, eshitganlarini darrov hammaga gapirib beradigan odamlarning timsolidir. Bunday odamga ishonib bo‘lmaydi. Shuning uchun bu qo‘g‘irchoqning bahosi qimmat emas. Ikkinchi qo‘g‘irchoq esa, hamma gapni bir qulog‘i bilan eshitib, ikkinchisidan chiqarib yuboradigan odamlar ramzidir. Bunday odam beg‘am bo‘lib, u birovning gapiga qulqoq ham solmaydi, maslahatiga ham kirmaydi. Uchinchi qo‘g‘irchoq esa xuddi “tuya ko‘rdingmi, yo‘q” qabilida yuradigan, eshitgan gapini ichiga yutib ketadigan odam timsolidir. Bunday odamlar vazmin, mulohazali bo‘lib, ularga ishonsa bo‘ladi. Shuning uchun ham uning bahosi hammasidan yuqori turadi.

Yigitning gaplarini eshitgan sulton o‘zida yo‘q xursand bo‘libdi. Saroy ahli uni olqishlab izzatikromga sazovor qilibdi. Shundan so‘ng Sulton har

bir qo'g'irchoqqa o'z bahosini yozdiribdi-da, unga sovg'a qilib yuborgan podshohga qaytarib yuboribdi. Yigitchani esa zindondan ozod qilib, saroyga xizmatga olibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Aqlidan el rozi,
Ahmoqdan dil norozi.*

*Aql – boshlovchi,
Tana – ishlovchi.*

Aql bo'yda emas, o'yda.

Aql – Hasan, odob – Husan.

FAROSATLILIK

Farosat – samimiyat, ziyraklik, zakovat, o'tkir aql, kishidagi tez va to'g'ri fahmlay olish qobiliyati, sezgisidir. Go'zal xulq sohibi bo'immoqchi bo'lgan inson hamisha unga muhtoj.


SHER VA TULKI (ertak)

O'rmon shohi sher qarib, kuchsizlanib qoldi. Ana shunda hiyla ishlatib, qornini to'ydirishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. U o'zini betob deb e'lon qildi-da, ostona hatlab uyidan chiqmay qo'ydi. Shu yo'sinda u ahvoldidan xabar olgani kelgan hayvonlarning bir qanchasini g'orga kirishi hamono tilka-pora qildi.

Kunlardan bir kuni sherning ziyoratiga tulki keldi. Tulki eshikdan kirmayoq unga ta'zim qildi:

– Ey hayvonlar shohi, holingiz qanday?

Sher dedi:



– Ey qadrdonim, kel, o‘z uyingday bemalol ichkari-ga kir?

– Sultonim, – dedi tulki bamaylixotir, – kirmoqchi edim, biroq huzuringizga kirgan ko‘pgina oyoq izlarini ko‘ryapman-u, ulardan hech birining qaytib chiqqani ni ko‘rmayapman.

Shunday qilib tulkining fahm-u farosati tufayli sherning hiyla-nayrangi butun o‘rmon ahliga oshkor bo‘ldi.

QOG‘OZNING BALANDLIGI (rivoyat)

Qadim zamonda bir podsho bo‘lgan ekan. Podshoning o‘ng qo‘l vaziri va chap qo‘l vaziri bo‘lib, ularning bir-birini ko‘rgani ko‘zi, otgani o‘qi yo‘q ekan. Chap qo‘l vazir hamisha o‘ng qo‘l vazirni yo‘qotish payida yurarkan. O‘ng qo‘l vazir chap qo‘l vazirning yomon niyatlarini sezsa ham aslo parvo qilmas ekan. Podshoning ikki yonida o‘ttiz beshtadan yetmish o‘rin bo‘lib, har bir kishi o‘z o‘rniga o‘tirar, biri ikkinchisining joyiga o‘tirishga haqqi yo‘q ekan. Ayniqsa, o‘ng qo‘l vazir chap qo‘l vazirning o‘rniga, chap qo‘l vazir o‘ng qo‘l vazirning o‘rniga o‘tirmas ekan.

Kunlardan bir kun podsho o'ng tomoniga bundoq qarasa, o'ng qo'l vaziri o'rnidida yo'q emish. Podsho yon-atrofidagi yasovullariga vazirni uyidan chaqirib kelishlarini buyuribdi.

Qulay fursatni poylab yurgan chap qo'l vazir o'rnidan irg'ib turib:

– Podshohim, bir qoshiq qonimdan kechsangiz, bir arzim bor, – deb ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib turaveribdi.

Podsho:

– Kechdim, ayt arzingni, – debdi.
– O'ng qo'l vazirning o'tiradigan o'rniaga bir parcha yuqa qog'oz qo'ysak, agar vaziringiz haqiqatan ham ziyrak, bilag'on, dono bo'lsa, qani, shu qog'ozni bilsin. Agar bilmasa, unday befahm vazirning sizdek ulug' podshoh dargohida xizmat qilishi munosib emas, – debdi.

Bu gap podshohga ham, o'tirganlarga ham ma'qul tushibdi. Shunda podsho:

– Bir parcha piyoz po'stidek qog'ozni vazirning o'tiradigan joyidagi ko'rpachaning orasiga qo'yinglar, agar qog'oz borligini sezsa, boshidan oyog'igacha zarga ko'maman, bordi-yu, bilmasa, kallasini tanasidan judo qilaman, – deb buyruq qilibdi.

Podsho buyurganidek qilib, bir parcha piyoz po'stidek qog'ozni vazir o'tiradigan ko'rpachaning qatiga qo'yishibdi.

Bir payt vazir salom berib kirib kelibdi. Saroy ahli ko‘z-u qulqoqla aylanib, vazirni diqqat bilan kuzatar, vazir esa xotirjam holatda o‘rniga borib o‘tirgach, bir yerga, bir osmonga qarab qo‘yibdi.

Shunda podsho:

– Nima sababdan joyingizga o‘tiriboq bir yerga, bir osmonga qarab qo‘ydingiz? – deb so‘rabdi.

Vazir o‘rnidan turib:

– Podshohim, bugun yer yo piyoz po‘s tidek baland ko‘tarilibdi, yoki osmon bir parda pastlabdi, – debdi.

Podsho vazirning fahmiga qoyil qolib, boshidan oyog‘igacha oltinga ko‘mibdi.

CHAQQON O‘G‘IL (*hikoya*)

Uchta ayol bozordan savatlarini ko‘tarib qaytisha-yotgandi. Dam olish uchun yo‘l chetidagi o‘rindiqqa o‘tirishdi va o‘g‘illari haqida gaplasha boshlashdi. Birinchi ayol dedi:

– O‘g‘lim juda harakatchan. U hatto bir necha daqiqa davomida qo‘lida ham yura oladi.

Ikkinchi ayol o‘g‘lini maqtab shunday dedi:

– O‘g‘limning bulbuldek ovozi hammani mahliyo qiladi.

Uchinchi ayol bo'lsa churq etmay, faqat ularni ting-lardi. Undan gapirmayotganining sababini so'rash-ganida dedi:

– O'g'limning sizlarga gapirib beradigan alohida bি-rор xususiyati yo'q. Yaratganning menga bergen bir in'omi u.

Ayollarning ortidan kelayotgan bir otaxon beixti-yor ularning suhbatiga quloq solayotgandi. Ayollar toliqib savatlarini yo'lning o'rtasiga qo'yishdi. Yuk-larining og'irligidan og'rib ketgan bellari va qo'lla-ri ni silay boshlashdi. Ularning o'g'illari onalari-ni ko'rishlari bilanoq zudlik bilan ularning yoniga oshiqdilar.

Birinchi ayolning o'g'li oyoqlarini osmonga ko'ta-rib qo'li bilan yurib keldi, ikkinchi ayolning o'g'li bo'lsa bir xarsang toshning ustiga o'tirgancha, ona-si yaxshi ko'rgan qo'shiqni kuylay boshladи. Bosh-qalar xursand bo'lib uni olqishlab chapak chalishdi. Uchinchi ayolning o'g'li bo'lsa, onasining oldiga kelib shunday dedi:

– Aziz onajonim! Men sizga yordam bermoq-chiman!..

Shunday deb, savatni ko'tarib olib ketdi.

Ularni kuzatib turgan chol:

– Mehr-oqibat, fahm-u e'tiborsiz har qanday iste'dod – zavolga, yaxshilikni ko'zlab ko'rsatilgan

kichik muruvvat ham, albatta, muvaffaqiyatga yetaklaydi!.. Ota-onaning og'irini yengil qilishga astoydil bel bog'lagan azamat, albatta, ularning ham, elning ham kuniga ya-rab, roziligin topadi!

Mavzuga oid maqollar:

*Oldingdagi ovni ko'rmasang ham,
Uzoqdagi yovni ko'ra bil.*

*Til – aqlning qilichi,
Farosat – g'ilofi.*

Farosatsiz falokatga yo'liqar.

QAYTAR DUNYO

*To'rt narsa to'rt narsaga, ya'ni ulug'lik – adabga,
xursandchilik – xotirjamlikka, yaqinlik – do'stlikka,
aql – tajribaga muhtojdir.*

Jolinus hakim

*Har xasisdan yaxshilikni tutma ko'z,
Senga gavhardan ziyoda ushbu so'z.*

Farididdin Attor

BIR KUNLIK XIZMAT

Qadim zamonda bir saxovatli odam bo'lgan ekan. U hamisha elga osh-non ulashar va el xizmatini qilar ekan. Dasht-sahrolarga borsa, qo'y-qo'zilarni yayratib boqar, daryoga borsa, baliqlarga xo'rak ulashar ekan. Uning bir o'g'li bo'lib, bag'rikenglik va saxovatda u ham otasidan qolishmas ekan. Ota-

si vafot etgach, ro'zg'or shu yosh yigitning boshiga tushibdi. Yigit beva qolgan onasi bilan kun kechira boshlabdi.

Kunlardan bir kuni bir savdogar xalq orasida kezib:

– Kim mening bir kunlik xizmatimni bajarsa, uni olti oy boqaman va ro'zg'orini olti oylik yemak bilan ta'minlayman, – deb ovoza tarqatibdi.

Savdogarning gapini eshitgan yigit bir kun xizmat qilib, olti oylik haq olishga orzumand bo'libdi. Bunda xabar topgan savdogar yigitni o'zi bilan birga olib ketibdi. Yigitni olti oy boqibdi, olti oylik haqini, oziq-ovqatlarni ham ro'zg'origa beribdi va uni chaqirib shunday debdi:

– Endi kelishganimizdek, olti oy yeb-ichding, dam olding, haqingni ham olding, endi bir kunlik xizmatimni joyiga qo'yasan, – debdi.

– Ma'qul, – debdi yigit.

Savdogar qirq tuyaga qirq xurjunni ortib, yigitni bir tuyaga mindirib, o'zi bir tuyaga minib yo'lga tushibdi. Tongda yo'lga chiqqan karvon yarim tunda yo'l bosib, bir quduq oldiga kelib to'xtabdilar.

Savdogar yigitga qarab:

– Endi seni shu quduqqa tushiraman, qirq xurjuni ham yuboraman. Qo'lingga nima ilinsa, xurjunlarga solib, arqon orqali menga uzataverasan, – debdi.

– Xo'p, – debdi yigit.

Savdogar yigitning beliga ikki yuz gazlik arqoni bog'lab quduqqa tushiraveribdi, yigit ana yetdim, mana yetdim deb, quduq tubiga tushaveribdi. Oxiri yigitning oyog'i yerga tegibdi. Savdogar xurjunlarni quduqqa tushira boshlabdi.

Yosh yigit qo'liga ilingan narsalarning nima ekanligini o'zi ham bilmay-ko'rmay, xurjunlarni to'ldirib, yuqoriga yuboraveribdi. Bir vaqt qarasa, xurjunlar tugab yuqoridan arqon tushibdi. Bu paytda savdogar yigitni quduqda qoldirib, o'zi oltin-kumush, gavhar-u marvaridlarni olib ketib qolgan ekan.

Yigit savdogarning hiylasidan dog'da qolib, g'am chekib o'tirgan ekan, uning yoniga bir toshbaqa kelib shunday debdi:

– Otang har safar shu quduq yonidan o'tayotib mening yeishim uchun yemak tashlab o'tardi. Shukrki, bugun Yaratganning marhamati bilan bir qancha imkoniyatlarni qo'lga kiritdim. Shu bois ko'zingni yum-da, tilagingjni ayt. Qayerni xohlasang, shu yoqda paydo bo'lasan!

– Men o'z uyimga borishni istayman, – debdi yigit.

U shunday deyishi bilan oradan bir necha daqiqa o'tar-o'tmay o'zini uyida ko'ribdi...

Kunlardan bir kun yana o'sha savdogar elga jar solib:

– Kimki bir kun xizmat qilib bersa, olti oylik haqini oladi, – debdi.

Yigit, men bormasam, tag'in boshqa birov borib, balolarga giriftor bo'lib yurmasin, degan maqsadda savdogarga rozilik bildiribdi.

Savdogar yigitni tanimay, yana o'zi bilan birga olib ketibdi. Olti oy rosa izzatda tutgach, avvalgi gapini takrorlab:

– Endi xizmatga! – debdi.

Yigit savdogar bilan yana o'sha tanish quduq bo'yiga boribdi. Savdogar yigitning beliga endi arqoni bog'lamoqchi bo'lgan ekan yigit:

– Xo'jam, meni tanimadingiz-a? Avvalgi safar meni ushbu quduqqa tushirib, tortib olishni unutgan edingiz. Ana shunda meni qoldirib ketganingiz uchun bir umr minnatdorman sizdan. Agar shunday qilma ganingizda yer osti dunyosining sehrli sultanatini ko'rmagan, parilarning qanotida emas, dag'al arqoning changalida tepaga ko'tarilgan bo'lardim, – debdi.

"Umrimda juda ko'p oltin-u kumushlarni ko'rdim, ammo parilarni ko'rmadim. Ularni ko'rib, qanotida uchish bu g'o'r yigitdan ko'ra menga munosibroq", deya o'ylabdi shunda savdogar.

Bu safar arqon savdogarning beliga bog'lanib, quduqqa tushirilibdi. Savdogarni pari misol kutib olgan quduq tubidagi toshbaqa ajdar bo'lib jazolabdi. Shu tariqa yigit ham, el ham bir zolimning zulmidan qutilibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Otaning ochgan yo'li bor,
Onaning bichgan to'ni bor.*

*Daryoga yaxshilik qilsang,
Ajrini biyobondan topasan.*

XAYR-EHSON

*Bir olimdan: “Adl va ehsonning ma’nolari nima?”
deb so’radilar.*

Olim aytdi:

– Adl – zulm, jabr-jafo ko’rgan mazlum becho-ralarning dodlariga yetish, ehson esa muhtojlarning jarohatlariga rohat malhamini qo’yishdir. Anushervon adolatni, Hotam xayr-ehsonni o’zlariga pesha qilgani-lari tufayli nomlari hanuzgacha xalq og’zida hurmat bilan yod etiladi.

*Birovkim unga himmat o’ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand!
Birovkim uning himmati yo’qturur,
G’ami bo’lsa ham hurmati yo’qturur.*

Alisher Navoiy

OLTIN HAYKAL

(rivoyat)

Qadim zamonda Abdumalik ismli savdogar yashagan ekan. O‘ta oliyjanobligi va saxiyligi uchun u Xurosonning eng yaxshi odami unvoniga sazovor ekan. Bir kuni u boyligining oz qisminiga ularshayotgani haqida o‘ylanib qolibdi, negaki odamlarga ehson qilinayotgan boylikning qiyomatni kishilarga muruvvat ko‘rsatishdan keladigan huzur-halovat oldida hech narsa emas edi. Shundan keyin u odamlarning farovonligi yo‘lida bor mulkini tarqatib yuborishga qaror qildi. Shunday qilib, Abdumalik o‘zining barcha boyliklaridan ajraldi. Bor mulkidan ayrilgach, u taqdir endi o‘ziga nimani tayyorlayotganidan bexabar bo‘lib yurganida, ko‘z o‘ngida yamoq kiyimdagি darveshning qaddi basti namoyon bo‘ldi.

– Ey Abdumalik, xurosonlik saxiy odam, – dedi darvesh, – men sening haqiqiy “men”ingman. Sen bilan bir butunlikni tashkil etishimning sababi sen ko‘rsatgan haqiqiy saxovat va oliyjanoblikda. Ushbu saxovat oldida saxiylik uchun erishgan shuhrating hech narsa emas. Rohat-farog‘atingdan voz kechib, butun boyligingni kambag‘allarga tarqatib yuborganing uchun seni taqdirlamoqchi-

man. Bugundan boshlab men har kuni huzuringda hozirgi ko‘rinishimda namoyon bo‘laman. Meni tayoqcha bilan urasan va men oltin haykalga aylanaman. Sen oltin haykaldan istagan kattalikda bo‘lak ushatib olishing mumkin bo‘ladi. Bu bilan menga zarar yetkazmaysan, har qancha ushatib olmagin uning o‘rni hadyalaring hisobiga to‘lib boraveradi.

Shundan so‘ng darvesh g‘oyib bo‘libdi.

Ertasi kuni Abdumalikning oldiga uning do‘sti Akal boy kelibdi. Ular endi o‘tirishlari bilan qarshilarda darveshning sharpasi paydo bo‘libdi. Abdumalik uni tayoq bilan bir urgan ekan, darvesh yerga yiqilib, oltinga aylanibdi. Shundan so‘ng Abdumalik o‘ziga kichkina oltin bo‘lagini olib, yana bir bo‘lakni mehmonga uzatdi.

Akal boy uyiga qaytib, bo‘lgan ishlarning sirini bilolmay, shunga o‘xhash mo”jizaga qanday erishmoq yo’llarini o‘ylay boshlabdi. U darveshlarning karmatlari haqida ko‘p eshitganligi bois shunday xulosaga kelibdi: oltinga ega bo‘lmoq uchun darveshni urish kerak. Akal boy bazm uyushtirib, unga barcha darveshlarni taklif qilibdi. Belgilangan kunda Akal boyning uyiga darveshlar oqib kelishibdi. Mezbon ularning barchasini dasturxonga taklif etib, to‘ygunlaricha ziyofat beribdi. Keyin u qo‘liga temir tayoq

olib, birin-ketin darveshlarni yiqitib boraveribdi, kaltaklangan darveshlar esa birin-ketin qulayveribdi. Nihoyat omon qolgan bir necha darveshlar uni to'xtatib, qoziga olib borishibdi. Akal boy o'zini oqlash uchun Abdumalikning uyida sodir bo'lgan voqeani aytib beribdi.

Abdumalikni qozi huzuriga chaqirishibdi. Yo'lda uning oltin "men"i nimalar aytishni o'rgatib boribdi. Qozining oldida u shunday debdi:

– Ijozatingiz bilan shuni ta'kidlamoqchimanki, menimcha, bu odam aytgan voqealar insonlarning aqliga sig'maydi.

Voqeani o'rganib, guvohlarni tinglagan qozi Akal boyni aqldan ozgan gumon qilib, bir oz muddat uni odamlardan ayirib, alohida xonada saqlashni buyuribdi. Akal boy o'ziga kelib olgunicha yolg'iz yashabdi. Darveshlar ham o'zlarigagina ayon bo'lgan ilmlari tufayli sog'ayib ketishibdi. Odamning g'ayritabiyy ravishda oltin haykalga aylanishiga esa hech kim ishonmabdi.

Abdumalik umrining qolgan qismini ham xayr-saxovatga bag'ishlabdi va o'z "meni"dan hosil bo'lgan oltin haykaldan bo'laklar ushatib, muhtojlarga yordam ko'rsatishda davom etibdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Asl qushning bolasi
Oldiga qo'ymay osh yemas.*

*Ko'ngli ochiqning – qo'li ochiq,
Qo'li ochiqning – yo'li.*

Bir anor ming bemorga davo.

RAHMDILLIK

Olijanob insonlar nafaqat insonlarga, balki hayvon-larga ham shafqat va marhamat nazari bilan qaraydilar, ularga ozor yetkazmaydilar.

*Ikki narsa kerak vujud uchun bil,
Birinchisi dildir, ikkinchisi – til.
Dilni sen mehr ila shafqatga to‘ldir,
Tilni haqiqatning o‘tkir tig‘i qil.*

QO‘RIQCHINING SABOG‘I

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadimda mirishkor, mehnatsevar bir dehqon yashagan ekan. Poyoni ko‘z ilg‘amas dalasida kun bo‘yi mehnat qilarkan. Yetishtirgan qovun-tarvuzlari-yu karamlariga bir kishining qulochi bazo‘r yetarkan.

Bir kuni tushlik qilib dalasiga qaytsa, poliziga “o‘g‘ri” oralabdi. O‘g‘ri kim ekan, deysizmi? Shu yaqin atrofdagi o‘rmonda yashovchi jajji tipratikan va quyonchalar ekan. Dehqonning jahli chiqib, ularga kesak otib quvlabdi. “Xo‘s, sen qayoqqa qarayapsan?” deya o‘dag‘aylabdi polizga tikilgan jonsiz qo‘riqchiga qarab...

Shu yili dehqonning dalasi shudring kasaliga chalinib, bor hosili nobud bo‘libdi. Uning erta bahordan kech kuzgacha qilgan mehnatlari zoye ketibdi. Bundan xafa bo‘lib yotib uxlagan dehqon g‘alati bir tush ko‘ribdi. Tushida poliziga tutash o‘rmonda bir donishmand tipratikan yasharmish. U jajji quyonchalar va tipratikanlarni bir yerga to‘plab, nasihatlar qilarmish. Karam, sabzi yegisi kelib polizga ketayotgan jonivorlarga, ekinlarni payhon qilib tashlamanglar, isrof qilmanglar, bobodehqon ranjiydi-ya, deya tayinlarmish. Dehqonning tunov kuni jahl bilan otgan kattakon kesagi mittigina quyonchaning oyog‘ini mayib qilgan ekan.

“Biz axir ekinlarni payhon qilmasdan, aytganin-gizdek, bir donagina sabzini hammamiz baham ko‘rayotgandik-ku”, deya zorlanayotganmish quyoncha tipratikanga...

Shu payt qarshisida jonsiz qo‘riqchisi paydo bo‘lib, tilga kiribdi:

– Dehqon bobo, Siz juda mehnatkash insonsiz. Le-kin biroz ziqnaroqsiz-da. Bir donagina sabzingizni mitti jonivorlarga ravo ko‘rmadingiz-a... Oyog‘i singan quyonchaning ahvolini ko‘rdingizmi?

Jonsiz, hissiz bir qo‘riqchidan ta’na eshitgan dehqon rosa mulzam bo‘libdi...

Bu voqealar tushida sodir bo`lsa-da, u o‘ziga tegishli xulosa chiqarib olibdi. Savatchaga poliz mahsulotlaridan solib, o‘rmonga eltib qo‘yadigan odat chiqaribdi. Shundan buyon qo‘li ochiq, jonivorlarga mehribon inson bo‘lishga so‘z beribdi.

Mavzuga oid maqollar:

Tikan bo‘lib oyoqqa qadalguncha,

Gul bo‘lib ko‘krakka sanchil.

Dunyo yorug‘ bo‘lsin desang,

Uyingga chiroq yoq.

Ko‘ngil qanoti osmondan katta.

MATONAT

Matonat – qattiq bardosh, sabot, chidam demakdir.

“Mehnatni sevish, g’ayrat va matonat bilan olg’a intilishning uchta shirin mevasi bor, – deyishgan dono bobolarimiz, – Ular – tan salomatligi, ko’ngil rohati, zehnning ortishi.”

Jiddú jahd – serharakatlik, g’ayrat va matonat bilan ishga kirishmoqlikdir. Bu sifat eng go’zal sifatlardan biri bo’lib, himmatga tobedir. Baland himmatli odam jiddu jahd qilishda mashaqqat tortishidan qo’rqmasin, chunki ikki ehtimoldan ziyoda bo’lmaydi. Agar jiddu jahdi soyasida tilagan orzusiga yetsa, juda yaxshi, agar yetolmasa, oqillar qoshida uzri ochiq-ravshandir. Uning ulug’ maqsad talabida himmati baland ekanini Haq ham, oqil xalq ham e’tirof etadi.

Mavlono Husayn voiz Koshifiy

*G’aflat uyqusidin uyg’on gar tilar bolsang murod,
Kim, yetar maqsadga har kim bo’lsa ul bedorroq.*

Zahiriddin Muhammad Bobur

UCH QURBAQANING SHIJOATI

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadim zamonda uzoqdagi bir davlatning chekkasida katta bir botqoqlik bo‘lgan ekan. U botqoqlikda juda ko‘p qurbaqalar yashar ekan. Qurbaqalar kelishib o‘zaro musobaqa uyushtiribdilar. Musobaqaning sharti eng baland daraxtning eng baland shoxiga chiqish ekan.

Dunyodagi barcha qurbaqalar bu musobaqani tomosha qilish, o‘z do‘stilarini qo’llab-quvvatlash uchun to‘planibdilar. Musobaqa qatnashchilari ichida juda chaqqonlari, botirlari va albatta, qo‘rqoqlari ham bor ekan. Musobaqaga kelgan barcha tomoshabin qurbaqalar hech kim eng baland daraxtning eng baland shoxiga chiqsa olmasligini bir-birlariga pichirlashib gapiribdilar.

– Bechoralar! Hech qachon chiqsa olmaydilar. Bekorga musobaqalashyaptilar.

– Bekordan bekorga o‘zingizni urintirmanglar, baribir eplay olmaysizlar.

– Amalga oshmaydigan ishga kuch sarflayapsizlar,
– degan gaplar eshitilibdi har tomondan.

Musobaqani boshlagan qurbaqalar tomoshabinlarining bu gaplarini eshitib, ozgina qiynalishlari bilan umidlarini uzib, musobaqani tashlab keta boshlab-

dilar. Haqiqatan ham, dunyodagi eng baland daraxtning eng baland shoxiga chiqish qurbaqalar uchun u qadar oson ish emas ekan-da... Lekin uchta qurbaqa har qanday holatda ham musobaqani davom ettirishibdi. Charchab kuchlari qolmasa ham, umidsizlikka tushmasdan daraxtga tirmashishni to'xtatmab-dilar. Nihoyat ular daraxtning eng baland shoxiga chiqibdilarki, shoxning ingichkaligidan, hatto qurbaqalarning bittasi ham tirmasha olmaydigan holda ekan. Shu payt ular ajoyib hunar ko'rsatibdilar. Ular bir birlarining qo'llaridan mahkam ushlab ingichka shoxlarni bir joyga jamlab, qo'l ushlashib daraxtning eng cho'qqisiga chiqibdilar.

Tomoshabin qurbaqalarning barchasi g'oliblarni tabriklab hayqira boshlabdilar:

– Tasanno!.. Ajoyib!.. Qoyil!.. Bunaqasi bo'lмаган!..

Hayratdan lol bo'lgan qurbaqalar bu ishni qanday uddalaganlarini bilish uchun, uch qurbaqaning oldiga kelibdilar.

– Bu mushkul ishni qanday bajardingiz? Qiyin va murosasiz musobaqada qay yo'sinda bir-birlaringizga yordam berdingiz? – deb so'rabdilar.

Uch qurbaqa:

– Har birimiz alohida harakat qilmaganimizda eng yuksak shoxga chiqa olmasdan pastga qulab tushishimiz aniq edi. Qiyinchiliklarga sabr qilish va

bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz bizni zafarga olib bordi. O'zimiz yakka holda yuta olmas edik, – debdilar.

Demak, orzularning ro'yobga chiqishi va maqsad-larga erishish uchun o'ziga ishonch, g'ayrat-harakat va albatta, o'zaro birdamlik kerak bo'ladi. Umidsizlanmasdan ilgari qadam qo'yish zafar sari yetaklaydi.

Mavzuga oid maqollar:

Umidli ish umidsiz bo'lmas.

*Umidsizlik uyin buzsang,
Umidingga yetarsan.*

*O'zim pashmanda bo'lsam ham,
Ko'nglim osmonda.*

Baxtingga ishonma, barmog'ingga ishon.

VAQT QADRI

*O'zingizga va boshqalarga manfaat yetkazmaydigan
ish bilan mashg'ul bo'lib, umringizni isrof qilmang.*

Jafo¹ chekmagan odam safo² qadrini bilmaydi.

Ulug'lar o'giti

*Suvning qadrin na bilursan suv yonida o'Itirib,
Suvning qadrin dashtlarda tashna yurgandan so'ra.*

Husayn voiz Koshifiy

QULNING KEMA SAYOHATI

Qadim zamonalarda bir boy yangi sotib olgan quli bilan sayohat qilish uchun kemaga chiqibdi. Qul bi-

¹ Ma'naviy, ruhiy va jismoniy ezilish, azob-uqubat, kulfat.

² Soflik, tozalik, beg'uborlik. Bu yerda xursandchilik, huzur ma'nosida qo'llanilgan.

rinchi bor dengizni ko'rayotgan ekan. Ular kemaga chiqqanlaridan so'ng kema sohildan yiroqlashgan sari qul qaltirab-qaltirab yig'lay boshlabdi. Yig'isi tobora kuchayib, kemadagilar uni yupatishga harch-and harakat qilishmasin, lekin foydasi bo'lma'bdi. Ni-hoyat, bir donishmand boyning oldiga kelib:

– Ruxsat bersangiz, bu odamni men yig'lashdan to'xtatay, – debdi.

Boy unga ruxsat beribdi.

Donishmand boyning uch-to'rtta qo'riqchiga aytib, qulni dengizga uloqtirib yuboribdi. Qul suvga tush-gach bir yuqoriga qalqib chiqar, bir suvning ichiga kirib ketar ekan. Kemadagilar donishmandning bundan keyin nima qilishini sabrsizlik bilan kuta bosh-labdilar. Qul dengizda ancha holdan toygach, donish-mand unga arqon tashlashni buyuribdi. Qul darhol arqonni ushlab olibdi. Uni kemaga qaytarib chiqaribdilar. Kemaga chiqib olgan qul yig'lash tugul, ga-pirishga ham harakat qilmasdan bir chekkada jim o'tiribdi.

Bu holdan hayron bo'lgan boy donishmanddan:

– Hech kim yig'idan to'xtata olmagan qulni qanday tinchlantirding?.. Buning siri nimada? – deb so'rabdi.

Donishmand jilmaygancha shohga qarab:

– Bu yangi qulingiz hech ham dengizni ko'rмаган. Dengizda cho'kish nima ekanini ham bilmасди. Den-

gizda kema eng xavfsiz joy ekanligini his qilmagan edi. Dengizga tushib buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi va bildi,— debdi. — Odamlar ham xursandchilik, sihat-salomatlikning qadriga boshiga kulfat tushganda va kasal bo‘lganda, yoshlik va hayotning qadrini qariganda, ya’ni o‘lim yaqinlashganda biladi. Shuning uchun, har bir ishga vaqt o‘tib ketgandan keyin emas, balki o‘z vaqtida harakat qilgan ma’qul. Yashayotgan vaqtingizning qadriga yetish ulug‘ fazilat, — debdi.

Mavzuga oid maqollar:

*Vaqt aqchadur,
G‘ofil bo‘lma, qochadur.*

*Yoqut bilan vaqt topilmas,
Vaqt bilan yoqut topilur.*

Uchgan qushni qaytarib bo‘lmas.

INSOF

Mashhur donishmand Buzurgmehrdan:

- Insof nima? – deb so'radilar.***
- Insof – odam o'ziga nimani ravo ko'rsa, boshqalar-ga ham shuni ravo ko'rishidir, – deb javob berdi Buzurg-mehr.***

CHIYABO'RI VA TO'TIQUSH

O'rmondagи ulkan daraxtning ustida bir to'tiqush in qurib bolalarini katta qilar edi. Shu daraxtning tagidagi kovakda esa bir chiyabo'rining uyasi bo'lib, uning ham bir nechta bolalari bor edi. To'tining bolalari chiyabo'ri ov qilgani ketgan paytlari daraxtning pastiga tushib, jazzi chiyabo'rilar bilan o'ynar edilar. Ammo bu holatdan ona to'ti hech mammun emas edi. Bir kuni u bolalarini to'plab shunday dedi:

- Bolalarim! O'zingizning tengingiz bilan do'st bo'linglar. Chiyabo'rilarning sizga zarar qilishidan qo'rqlaman.***

Ammo to‘ti bolalari onasining gapiga qulq solmab-dilar. Kunlarning birida chiyabo‘ri ov qilgani uzoq joylarga ketibdi. Shu payt katta bir bo‘ri kelib chiyabo‘rining bolalarini yeb ketibdi. Ona chiyabo‘ri uyi-ga qaytib kelib qarasa, bolalari yo‘q ekan. Uyidagi tartibsizlikdan ularni bo‘rining yeb ketganini sezib-di. Shunda chiyabo‘ri bolalarining bu holga tushishi-ga to‘tining bolalari aybdor, deb o‘ylabdi. Agar ular ovozlarini chiqarmaganida, bo‘ri mening bolalarim qayerda ekanligini bilmasdi va ularni yemasdi, deb o‘ylabdi. To‘tilardan qasdimni olaman, deb reja tu-zishni boshlabdi. Unga do‘sni silovsin shunday masla-hat beribdi:

– Yaxshisi, sen o‘zingni ovchilarga yaralangan qilib ko‘rsat, keyin ularni daraxtning tagigacha boshlab kelginda, o‘zing qochib ketgin. Ular seni qidirib, se ning o‘rningga to‘ti bolalalarini topib oladilar.

Chiyabo‘ri silovsin aytgandek qilibdi. Ovchini orqa-sidan ergashtirib daraxtning tagigacha olib kelib-di-da, o‘zi qochib ketibdi. Ovchi u tomon, bu tomon-ga qarabdi, lekin chiyabo‘rini topa olmabdi. Shu payt ko‘zi daraxt tepasidagi to‘tiquish uyasiga tushibdi. Darhol xaltasidan to‘rini olib to‘ti uyasi tomon o‘tib-di va to‘r bilan qush uyasini o‘rab olibdi. Ona to‘ti va uning polaponlari o‘zlarini har yonga ursalar ham,

ovchi to'ridan chiqa olmabdilar. Shu payt ona to'ti bolalariga shunday debdi:

– Ushbu harakatlarimiz bizga naf keltirmaydi. Yaxshisi, sizlar o'zlariningizni o'likka solib yotinglar. Ovchi sizlarni o'lib qolibdi deb to'rdan olib tashlama-guncha, o'lgandek qotib turinglar. Ovchi to'rdan olib tashlagandan keyin darhol uchib ketinglar. Men sizlarni o'zim izlab topaman.

To'ti bolalari onasi aytgandek qilibdilar. Ovchi, to'ti bolalari qo'rquvdan o'lib qolganga o'xshaydi, debdi-da, ularni to'r ichidan olib tashlabdi. Lekin to'ti bolalari birdaniga uchib ketibdilar. Ovchi nima bo'lganini tushunmay qolibdi. Ona to'tini esa uchib ketmasligi uchun qafasga solib, uyiga ravona bo'libdi.

Ovchi uyida to'tiga gapirishni va qo'shiq kuylashni o'rgatibdi. Oqibatda to'ti eng yaxshi gapiradigan va kuylaydigan bo'libdi. Ko'pchilik to'tining bu qobiliyatiga lol qolib, to'ti haqidagi ta'riflar saroy podshohi qulog'igacha yetib boribdi. Shoh ham bu to'tining kuylashini, gapirishini eshitmoqchi bo'lib, ovchini saroyiga keltiribdi. Shoh bu qadar xushovoz to'tini ilk bor ko'rishi ekan. Shoh ovchining to'tini yaxshi parvarish qilganini va ko'p mehnat sarflaganini aytib, evaziga qancha so'rasa ham haqdor ekanini aytibdi. Ovchi ham nihoyat maqsadiga erishganidan va yaxshi xaridor topganidan xursand bo'lib, to'tini shohga

qimmat narxda sotibdi. Shu-shu ona to‘ti shohning saroyida yashar, turli-tuman yeguliklar oldida muhayyo edi. Lekin ona to‘tining ta’sirli kuylashining sababi – u polaponlarini sog‘inib xotirlashidan edi. Ona to‘ti bolalarining dog‘-u hijronida yonar edi. Aqlli shoh buni tezda payqab qolibdi. Chunki to‘ti mudom saroy derazasidan o‘rmonga qarab kuylar va chuqur o‘yga tolardi. Bir kuni shoh to‘tining joniga oro kirish uchun undan boshidan kechirgan voqealarni so‘rabdi. To‘ti o‘tmishini so‘zlab beribdi. Shundaadolatli shoh to‘tiga qarab:

– Men bu yurtning shohiman. Bu yurtdagi har bir odamning qayg‘usi, muammozi, g‘ami mening ham g‘amimdir. Shunday ekan, diyorimning qushlari-yu hayvonlarining tashvishiga befarq bo‘lmayman. Bu mening burchimdir. Senga ruxsat, manzilingga borib bolalariningni top, – debdi.

To‘ti shohning insof-uadolatiga tasanno aytib, uchib ketibdi. Bolalarini izlab topibdi. Yaxshi hayot kechira boshlabdi. Ammo to‘tiadolatli shohni xotirlab, haftaning bir kunida saroya kelib, shohga ajoyib kuylarni xirgoyi qilar, o‘zi bilan birga bedana va bulbullarni ham ergashtirib kelib, ular bilan birga kuylar edi. Shoh hamadolat va insofning kuchini yana bir bor his etib quvonardi.

Mavzuga oid maqollar:

Vijdondan kechgan yiqilar.

Insofli oshini yer,

Insofsiz boshini.

Odil kishi oyday,

Oqib turgan soyday.

MAKKORLIK

Aqlning qo'li nafsning tizginini ushlab qolsa, yomon yo'lga qadam bosmaydi, to'g'ri so'z va to'g'ri ishni egri deb, egrilikni esa to'g'ri deb ayttirmaydi, makr-hiyalaga yon bosmaydi. Har narsa ko'paygan sayin arzonlashadi, ammo aql, ilm va tajriba ko'paygan sayin, qimmatlashadi, bahosi ortadi.

*Chiqmagil makkorlikning tomiga,
Tushging albatta baloning dom¹iga.*

Donolar bisotidan

*Birovkim erur rostlikdan yiroq,
Oningdek kishi bo'l magani yaxshiroq.*

Alisher Navoiy

¹ Tuzoq, sirtmoq, qopqon

KIBRLI BURUN

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir mamlakatning bir podshohi va uning aqlli va sofdil vaziri bo‘lgan ekan. Vazir shohning eng ishongan va maslahatgo‘y do‘sti va qadrdoni ekan. Vazir har doim xalqning g‘amida yurar, shu bilan birga bu ishlari bilan shohning ham obro‘sni ko‘tarilardi. Lekin har yaxshiga bir yomon bor deganidek, vazirning obro‘-e’tiborini ko‘ra olmay-diganlar ham bor ekan. Bunday odamlardan biri vazirning o‘z do‘sti ekan.

Podshoh har doim vazirga:

— Yomon odamga o‘z yomonligi kifoya. Unga ortiq jazoning keragi yo‘q. Naqadar to‘g‘ri so‘zlar, — deb aytar ekan.

Kunlardan bir kuni vazir saroydagi ishlarini tuga-tib har doimgidek o‘z ahli oilasiga g‘amxo‘rlik qilish uchun uyiga ravona bo‘libdi. Yo‘lda u g‘araz niyatda yuradigan do‘stini uchratib qolibdi. Do‘sti vazirdan shoh bilan gaplashmoqchi ekanligini va bunga hech imkoniyat topa olmayotganini aytibdi. Mehribon vazir do‘stiga bu ishda o‘zi yordam berishini va ertaga-yoq shoh saroyiga olib kirishiga va’da beribdi.

Ertasi kuni vazir va’dalashganidek, do‘stini shohning huzuriga olib kiribdi. Ayyor do‘st shohning oldi-

ga kirib, darhol to'nini teskari kiyib olibdi. Shohning yoniga borib:

– Shohim, mening bir qoshiq qonimdan keching. Sizga yoqmaydigan xabarim bor. Ammo muammo-lar bundan ham kattalashib ketmasligi va sizga bি-ror kor-hol bo'lmasligi uchun, hamda siz ham xabardor bo'lishingiz uchun, aytishni ma'qul ko'rdim. Sizning vaziringiz mening yaqin do'stim hisoblanadi. U sizning oldingizda ikki bukilib ta'zim qilib turadi, lekin boshqa joylarda hamma ishlarni o'zi qilishini aytib, hatto sizni ham mensimasdan kibrlanadi. Misol uchun, gaplashsangiz burnini ushlab oladi, yuzini boshqa tomonga burib oladi. Ishonmasangiz sinab ko'ring. O'zingiz guvoh bo'lasiz. Shuni sizga aytib qo'yay degandim. – debdi. U shohning huzuridan chiqib do'stining oldiga boribdi:

– Senga rahmat, menga ancha yordam berding. Endi, seni mehmonga chaqiraman. Bugun mening mehmonim bo'l, – debdi.

Vazirning yo'q deyishiga qaramasdan, uni uyiga mehmon qilgani olib ketibdi. Uyida vazirni rosa sarimsoq va piyoqli ovqatlar bilan mehmon qilibdi. Vazir uzoq vaqt qolib ketganiga xijolat bo'lib, darhol saroydagi ishlariga shoshilibdi. Saroya kelsa, soqchilar uni shoh huzuriga chaqirayotgani ni aytibdilar. Vazir shohning oldiga kiribdi. Lekin

shoh bilan gaplashayotganda burun va og‘zini qo‘li bilan biroz to‘sib gapiribdi. Shoh yaqinlashsa, yuzini boshqa tomonga burib olar ekan. Shunda, shoh vazirning do‘sti to‘g‘ri gapirganiga amin bo‘libdi. Vazirga xontaxta ustida turgan xatni berib, uni zudlik bilan bosh vazirga yetkazishni buyuribdi. Odatda shoh biror odamni biror mansabga tayinlashni shunday xatlar orqali amalga oshirar ekan. Vazir yaxshi ish tez amalga oshirilsin, deb darhol saroydan chiqib ketibdi. Yo‘lda o‘z do‘stini ko‘ribdi va unga safarining sababini aytibdi. Do‘sti undan xatni o‘zi olib borib berishga ruxsat so‘rabdi:

– Men shohimizdan shu narsani ertalab so‘ragan edim. Menga ber, men o‘zim olib borib beray, – debdi. Vazir ham xatni do‘stiga berib:

– Mayli, o‘zing olib bora qol. Har holda, shoh ham seni biladi, – debdi.

Ertasi kuni vazir har kungidek saroyga kirib boribdi, ammo shoh vazirni ko‘rib hayratda qolibdi. Undan kecha nima bo‘lganini so‘rabdi. Vazir xat haqida shohga aytib beribdi. Shu payt shohning huzuriga bir kichik qop va xat olib kiribdilar. Xatda “Shahanshohim, siz aytganingizdek, kibrli burunni kesib huzuringizga yubordim”, – deb yozilgan ekan. Shoh hayrat to‘la qarash bilan vazirdan savol so‘ray boshlabdi.

– Kecha men bilan gaplashayotganingda, nima uchun burningni ushlab olib yuzingni mendan o'gir-ding? – deb so'rabdi.

– Bir qoshiq qonimdan keching, shohim. Kecha sizning huzuringizga kirgan do'stim meni mehmonga chaqirdi. U yerda juda ko'p sarimsoq va piyozli ovqat-lar bilan mehmon qildi. Shuning uchun, uning yomon hidi sizni ranjitmasligi uchun, sizdan o'zimni olib qo-chib turdim, – debdi.

Shoh hamma narsani tushunib yetibdi va vazirga qarab shunday debdi:

– Yomon odamga o'z yomonligi kifoya qiladi.

Mavzuga oid maqollar:

*Oltin tuproqdan olinar,
Taryok ilondan.*

Haq o'z do'ppisining tagida.

*Zarni ko'rgan zanjirini uzar,
Kishining zari kishini buzar.*

Ishlamay yegan og'rimay o'lар.

**OTA-ONANI
HURMATLASH**

Hojati ravo bo'lishini tilagan kishi iloji boricha bosh-qalarning hojatlarini ravo qilishga kirishsin.

Husayn voiz Koshifiy

***Ota-onangni o'zingdan rozi qil.
Sen ularning qadrini ko'p yaxshi bil.
Ol duosin ularning, top kamol,
Yor bo'lgay baxt-u iqbol bezavol.***

Shoir Abdiy

OTA-ONA HURMATI

Bir mo'tabar odam bir yigitning ota-onasiga qilgan xizmatlarini eshitib uni ziyorat qilmoqchi bo'ldi. Bu yigit qassob edi. Mo'tabar odam qassobchilik bozori-

dan u yigitni izlab topdi. U bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashgandan keyin:

– O'g'lim, men musofir bir kishiman, agar qabul qilsangiz, bu kechani sizning uyingizda o'tkazishni istayman, – dedi.

Yigit mo'tabar odamning iltimosini jon-u dil bilan qabul etdi, kechqurun do'konini berkitib, u bilan birga uyiga qaytdi.

Uyning bir chekkasidagi to'shakda qarilikdan juda kichkina bo'lib qolgan bir chol yotardi. Yigit mo'tabar mehmoniga joy ko'rsatib:

– Aziz mehmonim, qani, bemalol o'tirib dam oling, to'shakda yotgan muhtaram chol mening otam bo'ladi-lar. Onam yaqinda vafot etdilar. Otamga mendan boshqa qaraydigan kishi yo'q. Har kun aziz otamning xizmatlarini qilib, keyin ishga ketaman, – dedi.

Yigit darhol sho'rva pishirishga kirishdi. Ovqat tayyor bo'lgandan keyin bir kosachada sho'rva olib otasining yoniga keldi. Uning boshini sekingina ko'tarib sho'rvani ichirdi. Yigit otasini uxlatib xotir-jam bo'lgandan keyin mehmon uchun dasturxon yoz-di. O'ziga ham, mehmonga ham sho'rva keltirdi, bir-galashib ovqatlandilar. Mo'tabar mehmon:

– O'g'lim, sen otangni to'ydirib yuvib-tarab o'rniga yotqizganidan keyin u og'zini qimirlatib turdi. Bu bilan u nima demoqchi edi? – deb so'radi.

– Men har vaqt otamni ovqatlantirganimdan keyin-gina o‘zim ovqatlanaman. Agar undan avval ovqat-lansam, ota hurmatini bajo keltirmagan adabsiz o‘g‘il-lardan hisoblanardim. Hozirda otam mendan juda rozilar. Taomdan keyin og‘zilarini qimirlatib shukr etadilar va mening haqimga duo qiladilar. Marhuma onam ham mendan rozi edilar, doimo haqimga duo qilardilar, – dedi yigit.

Mo‘tabar odam yigitning so‘zlarini eshitgach, ko‘zlariga yosh olib:

– Barakalla, o‘g‘lim! Sen haqiqiy farzand ekansan. O‘ta-onha hurmatini unutgan farzandlar sendan ibrat olsinlar. Ofarin, o‘g‘lim. Ota-onangga qilgan xizmat-laringning xayrli ajrini ko‘rasan, – dedi va yigit haqi-ga uzundan uzoq duo qildi.

Mavzuga oid maqollar:

Ota – aql, ona – idrok.

Ota – bilak, ona – yurak.

Ot qadrini bilmasa, yayov ko‘rar jazosin,

El qadrini bilmasa, yovlar berar jazosin.



MUNDARIJA


<i>So‘zboshi</i>	3
Ilmgā intilish	5
Tosh qattiqmi yoki bosh?	5
O‘qishning foydasi	8
Salomlashish	10
“Assalomu alaykum”ning qudrati	10
Keksalarni e’zozlash	14
“Qari bilganni pari bilmas”	14
Do’stlashish	24
Dushmanning do’stga aylanishi	24
Ayiq va ikki do’st	27
Gina-kuduratning zarari	29
Kartoshka ko’targan odam	30
Til va yurak	32
Ochko‘zlik	34
Ochko‘zlik balosi	34
Manmanlik	41
Maqtanchoq ovchi	41
Hasadgo‘ylik	51

Hasadgo‘yning ulushi	51
Birovga choh qazigan, o‘zi yiqilar	54
Yolg‘onchilik	56
Gul o‘stirolmagan bola	56
Egrilik	60
Ikki do‘sit va ular o‘g‘irlagan bir xalta oltin	60
Yalqovlik	63
Yalqov aksi	63
Tirishqoqlik	70
Tirishqoq Yun Su	70
Arslondek mehnat qil!	73
Qo‘r quoqlik	75
Tuya, fil va olmaxon	75
Xasislik	79
Boylik aql bilan sarflanmasa	79
Takabburlik	82
Takabbur boy	82
Chaqimchilik	84
Chaqimchining oqibati	84
G‘iybatchilik	87
Sochilgan patlar	88
Qanoatlilik	90
Qanoatning foydasi	91
Donolik	95

Uchta oltin qo‘g‘irchoq	95
Farosatlilik.....	99
Sher va tulki.....	99
Qog‘ozning balandligi.....	101
Chaqqon o‘g‘il	103
Qaytar dunyo.....	106
Bir kunlik xizmat.....	106
Xayr-ehson	111
Oltin haykal	112
Rahmdillik	116
Qo‘riqchining sabog‘i.....	116
Matonat.....	119
Uch qurbaqaning shijoati	120
Vaqt qadri.....	123
Qulning kema sayohati.....	123
Insof.....	126
Chiyabo‘ri va to‘tiquish.....	126
Makkorlik	131
Kibrli burun.....	132
Ota-onani hurmatlash	136
Ota-ona hurmati	136



Izoh va qaydlar uchun



Bolalar adabiyoti

SHARQONA TARBIYA

1-kitob

Ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalar, maqollar, hikmatlar

Muharrir:
Ilhom XALILOV

Musahhih:
Ixtiyor SAID

Badiiy va texnik muharrir:
Xurshidbek IBROHIMOV

«Navro'z» nashriyoti litsenziyasi:
AI № 170. 23-dekabr 2009-y.
100000, Toshkent shahri, A.Temur ko'chasi, 19-uy.

Terishga berildi: 09.01.2018.
Bosishga ruxsat etildi: 20.02.2018.
Formati: 60x84 1/16.
Schoolbook garniturasida
offset usulida bosildi.
Nashr bosma tabog'i: 2,42.
Shartli bosma tabog'i: 6,86.
Adadi: 8000 nusxa.
Buyurtma № 01

«Elizabet print» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 38-uy.

e-mail: elprint_info@mail.ru

1-kitob

Etiboringizga havola etilayotgan ushbu to'plamning
alohida xususiyati shuki, unda inson fe'lida mujassam
bo'lgan ba'zi bir fazilat yoki illatlarga to'xtalinib, uni
ertaklar, rivoyatlar, hikoyatlar, hikoyalari, xalq maqollari
misolida izohlanadi, ayni mavzudagi ulamolarning
o'gitlari, donolarning hikmatlari keltiriladi.
Mazkur to'plam oila davrasida mutolaa
qilish uchun mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-38-1-957



A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-38-1-957. The barcode is composed of vertical black bars of varying widths on a white background. Below the barcode, the numbers 9789943 381957 are printed in a small font.